

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O'ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

Furqatova Mehribon Farhodovna

UYG'ONISH DAVRI ADIBLARI IJODIDA TUSH MOTIVI

5A220100 – o'zbek filologiyasi bakalavri darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari
doktori, professor **Darmon O'rayeva**
Saidaxmedovna

BUXORO-2017

REJA:

Kirish.

I bob. Badiiy ijodda tush motividan foydalanish – o'ziga xos san'at sifatida.

I. 1. Tushga ishonchning badiiy asarlardagi talqini.

I. 2. Badiiy asar qurilishida tush motivining o'rni.

II bob. Uyg'onish davri adiblari asarlarida tush motivining badiiy-estetik vazifalari.

II. 1. Jahon adabiyotida tush motividan foydalanishning an'anaviyligi.

II. 2. Uyg'onish davri adabiyotida tush motividan foydalanish tajribasi.

II. 3. Asar qahramonlarining ruhiyatini va tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini ochib berishda tushning roli.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Xalq og`zaki ijodining epik janrlarida, mumtoz va zamonaviy adabiyotda yaratilgan she`riy, nasriy va dramatik asarlarda tush motividan foydalanib, asar qahramonlarining ruhiy holatini ochib berish, kayfiyatini, ichki kechinmalarini yoritish, psixologik tahlil qilish yoki asar voqealarini o`zaro bog`lab, uning shaklan va mazmunan yaxlit bir butunligini ta`minlash o`ziga xos an`ana tusini olganligi jahon adabiyotidan tortib milliy adabiyotimizgacha alohida e`tiborni tortadi.

Hozirgacha tush motividan xalq og`zaki ijodi durdonalarida va yozma adabiyot namunalarida o`ziga xos yo`nalishda foydalanib kelingani kuzatiladi. Har bir ijodkor undan turli maqsadda: yo ruhiy tahlilni yaratuvchi uslubiy vosita, yo kompozistion unsur sifatida foydalanib, badiiy mahoratini namoyon etadi. Bunda tush motivi hayot haqiqatini ochib berishda badiiy detal sifatida ishtirok etadi.

Tushga ishonch ajdodlarimizning eng qadimiy an`analaridan biridir. Xalqimizning qadimiy ishonch-e`tiqodi, aql-zakovati asosida uzoq asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga etkazib kelingan tush ta`birlarini o`rganish hamda tush motivlaridan badiiy asarlarda ruhiy tahlil usuli hamda badiiy shakl vositasi sifatida foydalanishga xos badiiy xususiyatlarni maxsus tadqiq qilish adabiyotshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, ma`naviyatimiz sarchashmalaridan biri bo`lmish tush ta`birlariga nisbatan ilmiy qiziqish yanada ortdi va bir necha mumtoz tush ta`birlarini chop ettirildi. Ularning chop ettirilishi esa tushga oid qarashlarning adabiy asarlardagi badiiy talqiniga xos xususiyatlarni o`rganishga yanada keng imkoniyatlar yaratdi. Chunki sho`rolar davrida xalqimizning necha yuz asrlik an`ana va urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini taqiqlandi. Shu qatorda insonning ruhiy olamida sodir bo`ladigan tush hodisasi g`ayb olami bilan bog`liqligi bois tush ta`birlariga oid adabiyotlar xalq qo`lidan tortib olindi. Mustaqillik sharofati bilan bu nodir asarlar o`z o`quvchilariga qaytarilayotganligi quvonarlidir.

Shularni inobatga olib, ushbu bitiruv malakaviy ishda jahon adabiyotining uygʻonish davri ijodkorlari asarlarida tush motividan turli maqsadlarda: qoliplash sanʼati, hayot haqiqatini ramziy aks ettirish usuli, kiritma voqea, badiiy shakl koʻrinishi yoki kompozistion vosita, badiiy detal, epizodik tasvir, qahramon qismatidan bashorat va ruhiy tahlil vositasi, tugun yoxud syujet chiziqlarining boshlanish yoki tugash nuqtasi, voqealar rivojini taʼminlovchi, asar voqealarini uyushtiruvchi va yaxlitlashtiruvchi, ularni mantiqan bogʻlovchi estetik vazifalarda qoʻllanilishi, syujetning oʻzak motivi boʻlib kelishi, oʻziga xos anʼanaviy badiiy talqini masalalari yaxlit tizim koʻrinishida tadqiq qilinmoqda.

Mavzuning oʻrganilish darajasi. Badiiy asarlarda tush motividan foydalanish, uning ramziy maʼnolari, hayot haqiqatini ifodalashdagi oʻrni va roli, oʻziga xos badiiy-kompozistion vazifalarga egaligi masalasiga qiziqish kuchli.

Juda qadimdan tushga eʼtiqod bilan qarab kelingani maʼlum. Ayniqsa, Sharqda tush taʼbirmomalarini yaratishga qiziqish katta boʻlgan. Bu qiziqish keyinchalik tushlar boʻyicha dunyo xalqlari ruhshunoslik ilmida, shuningdek, folklorshunoslikda bir qator salmoqli tadqiqotlar yaratilishiga zamin hozirlagan.

Tush motivining qoʻllanilishi, tushdagi manzaralarni ramz sifatida baholash va uning adabiy asarlardagi oʻziga xos talqini, asar badiiy qurilishidagi oʻrni, estetik va kompozistion vazifalari, badiiy tiplari, ijodkor mahoratini belgilashdagi, asar qahramonlarining ruhiy holatini, tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini ochib berishdagi roli, muayyan badiiy-uslubiy vosita sifatidagi ahamiyati xususida oʻrganish zarur masala. Shuni inobatga olib, mazkur ishda tush motividan foydalanishning anʼanaviyligi, badiiy-tadrijiy takomili, oʻziga xos xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifalari masalasini uygʻonish davri ijodkorlari asarlari misolida oʻrganish koʻzda tutildi.

Oʻzbek folklorshunosligida tush talqini borasida J.Eshonqulovning “Oʻzbek folklorida tush va uning badiiy talqini” haqida yaratgan doktorlik tadqiqoti ayricha ahamiyatga ega.¹ Unda tadqiqotchi tush va tush taʼbirlarining hozirgacha oʻrganilishi, tush motivlaridan ertak va dostonlar syujetida, qoʻshiqlarda,

¹ Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. ДДА. – Т., 2010. – Б.47.

topishmoqlarda foydalanishning o'ziga xos tomonlari, tushning folklor asarlaridagi semantik talqini, ramziy ma'no-mazmuni, badiiy-estetik vazifalari, marosimlar bilan munosabati xususida qimmatli fikr-mulohazalarni ilgari surgan.²

O'zbek adabiyotshunosligida tushning badiiy asarlarda qo'llanishi, o'ziga xos poetik-kompozistion vazifalari maxsus tadqiq qilinmagan esa-da, bu borada ayrim mumtoz va zamonaviy ijodkorlarning syujet yaratish va asar kompozistiyasini belgilash, qahramonlarning ruhiyatini psixologik tahlil qilish mahorati o'rganilgan ishlarda, adabiyotshunoslikka oid atamashunoslik lug'atlarida ba'zi muhim fikr-mulohazalar uchraydi. Ayniqsa, adabiyotshunosligimizda "Irq bitigi" ta'birnomasi, "Qutadg'u bilig", "Qissai Yusuf Siddiq alayhis-salom", "Yusuf va Zulayho", "Gul va Navro'z", "Sab'ai sayyor", "Lison ut-tayr", "Boburnoma" kabi mumtoz asarlarning badiiyatini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, albatta, tushga munosabat bildirilganligi ko'zga tashlanadi. Chunki bu asarlarda tush tasviri muhim o'rin tutadi. Bu jihatdan I.Haqqulov, B.To'xliyev, N.Rahmonov, S.Haydarov, S.Erkinov, S.Hasanov, H.Qudratullayev, S.Jalilov, B.Murtazoyev, H.Safarova, F.Isomiddinov, M.Narziqulova va boshqa olimlarning tadqiqotlari alohida e'tiborni tortadi.

N.Shodiyev "Abdulla Qahhorning psixologik tahlil mahorati" mavzusidagi nomzodlik tadqiqotida tushning adib asarlaridagi poetik vazifasi haqida to'xtalar ekan, hodisaning maxsus o'rganilmaganligiga achinib, shunday yozadi: "Afsuski, qahramonni psixologik xarakterlashning asosiy vositalaridan bo'lmish tushning psixologik mohiyati haqida qahhorshunoslikda biror-bir fikrga duch kelmaymiz... Tush mukammal obraz yaratishning eng muhim jihati bo'lishi bilan birga, qahramonlar ichki holatini, psixik hayotini chuqur ochib beruvchi psixologik tahlil vositasi hamdir".³

Jahon adabiyotida tush janr sifatida qo'llanishi haqida ma'lumotlar uchraydi.⁴ Lekin bu haqda yaratilgan alohida tadqiqot borligi kuzatilmaydi. Shuni

² Эшонкул Ж. Туш ва талкин. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1998. – № 2. – Б. 40-42.; Эшонкул Ж. Туш ва унинг ўрганилиши. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – № 2. – Б. 54–60.

³ Шодиев Н. А.Қаҳҳорнинг психологик таҳлил маҳорати. НД. – Т., 1973. – Б.139-140.

⁴ Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. (Илк ўрта асрлар, Уйғониш даври ва XVII аср Ғарбий Европа адабиёти). – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 320 б.

inobatga olib, jahon adiblari asarlarida tushning qo'llanilishini o'rganish muhim hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Ishda uyg'onish davri adiblari ijodida tush motivining qo'llanilishi, badiiy-kompozitsion vazifalari, tipologiyasi, muayyan poetik san'at sifatidagi ahamiyatini yaxlit holda maxsus tadqiq qilish bosh maqsad qilib belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- uyg'onish davri adiblari ijodida tushga ishonchning talqin qilinishiga xos xususiyatlarni o'rganish;
- badiiy asarlarda tush motivi qo'llanilishining o'ziga xos an'anaviyligini va tadrijiy takomilini aniqlash;
- tushdagi manzaralarning ramziy mohiyat kasb etib kelishi va uning badiiy talqin etilishiga xos xususiyatlarni tadqiq qilish;
- badiiy asar qurilishida tush motivining tutgan o'rni, badiiy vazifalarini o'rganish;
- uyg'onish davri adiblari asarlarida uchraydigan tush motivining mavzuiy tiplarini aniqlab, tasnif qilish;
- tushlarning ijodkor mahoratini belgilashdagi, asar qahramonlarining ruhiy holatini, tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini ochib berishdagi rolini aniqlash;
- tushdan foydalanishning muayyan badiiy san'at sifatidagi ahamiyatini baholash.

Bitiruv malakaviy ishining predmetini uyg'onish davri adiblari ijodidagi tush motivlari tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. Ishni yozishda jahon adabiyotining antik va uyg'onish davri adiblari asarlaridan asosiy manba sifatida foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining metodologiyasi. Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov hamda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy an'analarni takomillashtirish g'oyalarini qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslari haqidagi qarashlari mazkur bitiruv malakaviy ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Uygʻonish davri adiblari badiiy asarlardagi tush motivining oʻziga xos xususiyatlarini, badiiy-kompozistion va estetik vazifalarini tadqiq etishda Z.Freyd, E.Fromm, I.Sulton, S.Haydarov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, N.Karimov, B.Nazarov, I.Gʻafurov, B.Karimov, J.Eshonqul, U.Hamdam, U.Joʻraqulov kabi olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlari, monografiya hamda risolalari asosiy nazariy manba vazifasini oʻtadi.

Bitiruv malakaviy ishining metodlari. Bitiruv mamlakaviy ishida psixoanalitik va tahlil metodlaridan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Badiiy asarlarda tush motivining qoʻllanishi, oʻziga xos xususiyatlari, badiiy-kompozistion va estetik vazifalari masalasini yaxlit holda tadqiq etishga bagʻishlangan ushbu bitiruv malakaviy ishning asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari adabiyotda tush motividan foydalanish anʼanasini qiyosiy oʻrganishda oʻziga xos nazariy ahamiyat kasb etadi.

Ishda keltirilgan dalillar, fikr-mulohazalardan oliy oʻquv yurtlarida, akademik listey va kasb-hunar kollejlarida, shuningdek, oʻrta maktablarda xalq ogʻzaki badiiy ijodiyoti va yozma adabiyot aloqalari, jahon adabiyoti tarixini oʻrganishda va oʻrgatishda, shu sohalarga oid maxsus kurslar oʻtishda va maʼruzalar oʻqishda, dars mashgʻulotlari olib borishda, adabiyotshunoslikka oid oʻquv qoʻllanmalari, darsliklar va atamalar lugʻati yaratishda keng foydalanish mumkin.

Ishning sinovdan oʻtishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi Buxoro davlat universiteti Oʻzbek adabiyoti kafedrasining yigʻilishida muhokama etilib, tugallangan tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan tashkil topgan.

I BOB. BADIY IJODDA TUSH MOTIVIDAN FOYDALANISH – O’ZIGA XOS SAN’AT SIFATIDA

I. 1. Tushga ishonchning badiiy asarlardagi talqini

Tush motivi hikoya, qissa, roman, doston kabi epik va liro-epik xarakterdagi asarlarda, ayrim syujetli she’rlarda ko’p qo’llanib keladigan an’anaviy motivlardan biridir. Ayniqsa, tush motivi badiiy asarlar syujetida qahramonlarning ruhiy holatini ochib berishda hamda syujet voqealarini, syujetning asosiy bo’g’inlarini o’zaro bog’lashda muhim o’rin tutadi. U ijodkorga o’z fikrini lo’nda, bo’yoqdor, ta’sirchan qilib ifodalashga yordam beradi. Asarning kompozitsion qurilishini ixchamlashtirib, uning mazmunini yanada chuqurlashtiradi va boyitadi. Voqealar bayonining izchilligini ta’minlashga, asarning badiiy-estetik fazilatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Xususan, tushning asar qahramonlari ruhiy holatini yorqin tasvirlash va ichki olamini ochib berishdagi xizmati kattadir.

Tush motivi ruhiy tahlilning muhim poetik vositasi sifatida asar qahramonlarining nimalarni his etayotganligini, ma’naviy va axloqiy qarashlarini, e’tiqodini, turish-turmushini, o’y-kechinmalarini, orzu-umidlari-yu armonini anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, qahramonni qurshab turgan turli muammolar, uning dilini junbushga solayotgan ruhiy qiynoqlar va azoblar bilan o’quvchini tanishtiradi. Umuman, tush orqali qahramon ichki kechinmalari va shu kechinmalar ta’sirida uning ma’lum ruhiy kayfiyatda hayotiy voqealarga aralashuvi yoki munosabat ko’rsatishi jonli tasvirlanadi.

Qadimgi insonlar tushni sirli olam hodisasi sifatida qarab, unga nisbatan tabu bilan munosabatda bo’lganlar. Shu orqali tushlar bilan bog’liq e’tiqodiy qarashlar, irimlar shakllangan.

Eramizdan avvalgi ikkinchi asrda yashab o’tgan qadimgi grek yozuvchisi Artemidor Efesskiy birinchi “Tush ta’birnomasi” kitobini tuzgan inson sifatida e’tirof etiladi. Shundan so’ng bunday kitoblar yaratishga qiziqish ortgan. Artemidor fiziologik va majoziy tushlarni farqlashga uringan. U asosiy e’tiborini

tush ramzlarini belgilashga qaratgan. Shuningdek, u birovning tushini ta'birlashdan oldin o'sha insonning xarakter-xususiyatini o'rganishga da'vat etadi.

Yunon muabbiri Daltis asarlari orqali faylasuf Artemidorning "Oneyrokritika" asaridan tashqari besh jildlik "Tushnoma" asari etib kelgan.

Tushlarni ta'birlash aslida Sharqda yuksak bosqichga erishgan. Bir qator ilmiy asarlarda tushni ta'birlash masalasida ilg'orlik ko'proq bobilliklarda bo'lganligi ta'kidlanadi.

Uyg'onish davrida tushni ilmiy o'rganishga urinish bir qadar kuchayganligi kuzatiladi. Geraklid his qilish organlarining harakatdan to'xtashi natijasidagi harakat tush hisoblanadi, deb ko'rsatadi.

G'arblik qadimgi tabib va faylasuflar Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel, Epikur, Stisteron, Lukrestiy, Gippokrat, Galen, Albert Fon Boshtedt, Dekart va boshqalar tush ta'birlari masalasida xilma-xil fikrlarni bildirganlar. Chunonchi, Demokrit turli xalqlarning tushlarni amaliy hayotga tatbiq etishlarini ma'qullagan va bu uslubning asoslarini ochib bergan. Platon esa, tush ilhom manbai degan fikrni olg'a surgan. Gippokrat insonning tush ko'rishini gallyustinastiya va ovqat hazm bo'lishining yomonligi bilan bog'laydi va ba'zi bashoratli tushlarni inkor qilmagan holda, kasallikdan xabar beruvchi omillar, deb ham ataydi. Aristotel esa, bu narsaga moddiyunchilik nuqtai nazaridan yondoshib, inson tush ko'rishini borliqning in'ikosi sifatida baholagan va tushdagi voqelik inson faoliyatining davomi ekanligini ta'kidlagan.

O'tmishda yashab o'tgan tabiblardan biri Galen tush ko'rishning uch tipini ajratadi: birinchi – fikrlar, xayollardan tug'ilgan tush; ikkinchi – tana harakatlari ta'sirida kelib chiqqan tush; uchinchi – ilohiy ta'siridan tug'ilgan tush.

Seviliyalik Isidor yigirma jildlik «Etimologiya» va «Ashyolarning tabiati haqidagi kitob» asarlarida tushlar ta'birini ham keltiradi hamda bir qator tush ta'birlarini nomma-nom sanab, ularning bu sohadagi muvaffaqiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning yozishicha, bir olijanob ayol billur qadahga toza suv quyib, o'shanga qarab tushlarni ta'bir qilar ekan. Holbuki, Yusuf payg'ambarning ham shunday qadah idishi bo'lgan va uni Benyomin qopiga solib

qo'ygan. Umuman, suvga qarab yoki qadah idishiga yoxud boshqa shu xildagi idishlarga, shuningdek, pichoqqa, kitobga, yulduzlarning joylashishiga, oyning ko'rinishiga qarab ta'bir aytish Sharqda keng tarqalgan va hozirda ham bu usullar o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Bakr Muhammad ibn Yamon Samarqandiy, Imom G'azzoliy, Jaloliddin Rumiy, Abdullo Ansoriy va boshqa allomalar o'zlarining astronomiya, tib, astrologiya, ilohiyotga oid asarlarida inson ruhiyati, tush ko'rish tabiati, ruh va tananing tush ko'rish asnosidagi holati va mutanosibligi masalasida fikr bildirganlar. Tush ko'rish sabablari va bunda ruhiyatning ahamiyatini ko'rsatib o'tganlar. Aytaylik, mashhur tabib Ibn Sino tush sabablarini tanada ovqat hazm bo'lishi bilan bog'laydi. Uning fikricha, hech bir harakatsiz fikrlarga berilsa (xayol sursa) ko'rilgan tush to'g'ri chiqadi. Ibn Sino ham inson ruhining sirli olam bilan bog'liqligini e'tirof etadi.

Uyg'onish davrida tush psixologiyasi va ta'birlari okkultizm bilan bog'landi va tush ta'birlari shu fan asosida o'rganildi. Uyg'onish davridan keyin yana bir qancha oqimlar paydo bo'ldi va shulardan biri irrastionalizm bo'lib, bu oqim tarafdorlari tush ta'birlarini insonning psixik holatidagi o'zgarishlar; alahsirash, vasvasa, pirovardida miya aynish hodisalari bilan bog'laydilar. Irrastionalistlardan A.Adler inson hayotidagi bo'shliqni tushlar to'ldiradi, degan g'oya bilan chiqqan bo'lsa, Yung tushlar kelajak bashoratchisidir, degan fikrni o'rta tashlaydi. Freyd esa "Tushlar ta'biri" (Sonnik) asarida tushlar inson bolalik xotiralarining davomi, deb da'vo qiladi va tush ta'birlarida jinsiy xohishni ustun qo'yadi.

Tushlar ruhlarning aralashuvi bilan sodir bo'ladi degan tushuncha bilan u haqdagi ta'limot ko'pincha dinga bog'lanadi. Zero, J.J.Frezer ham inson o'z aqliy rivojida magiya, din va ilm singari uch bosqichni bosib o'tadi, deydi. Bunday taraqqiyot bosqichlarini tushlar ham kechirganiga shubha yo'q. Dinda tush hodisasi ilohiy olam bilan bog'lanish vositasi sifatida talqin qilinadi.

Tush badiiy asarda ko'proq psixologik dramatizmni kuchaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga o'zidan keyin keladigan kompozition qismlarni mantiqan birlashtiradi. Shuni hisobga olib, atoqli mumtoz adiblar o'z asarlarida tushlardan

badiiy tasvir usuli sifatida unumli foydalanib kelishgan va bu jarayon muayyan badiiy-tadrijiy taraqqiyotga erishgan.

Tush ko'rish sof ruhiy hodisa bo'lib, uyqu holatiga bog'liq. Chunki inson ko'pincha qachon va qanday holatda uxlaganiga qarab tush ko'radi. Inson tushida bu dunyodan allaqachon o'tgan odamlarni ko'radi, bir vaqtda har joyga safar qila oladi, hayvonlaru qushlar, boshqa jonivorlar bilan tillashadi, hatto bir o'zi qurolsiz holda yirtqichlar galasini yoki afsonaviy qudratga ega bo'lgan yovuz kuchni engaladi. Tush jarayonida inson yashab turgan vaqt va makon chegarasi o'z ma'nosini yo'qotadi. Bu vaqtda kishi o'z imkoniyatlari chegarasidan ortiqroq harakat qiladi. Tushlarda o'tib ketgan va bugungi voqelik hamda turli zamonlarda istiqomat qilgan odamlar bilan ham to'qnash kelish mumkin. Uning obrazlari moddiy dunyo qonunlaridan tashqarida harakat qiladi. Tushlar tush ko'ruvchining shaxsiy hayoti bilan tanish bo'lganda yana ham tushunarli bo'ladi.

Tush – bu hayotiy hodisa. Shuning uchun hayotda unga nisbatan alohida e'tibor beriladi. Ammo tushlarni ta'birlaganda, uning qachon, qaerda, qanday holatda, kim tomonidan ko'rilganligiga ahamiyat qaratiladi. Hatto uni ta'birlashda fasllar ham inobatga olinadi.

Xullas, tush haqida har bir xalqning tasavvur-tushunchasi, ishonchi yaxlit tizim ko'rinishida shakllangan bo'lib, ular og'zaki va yozma asarlarda turlicha talqin topganligi kuzatiladi.

I . 2. Badiiy asar qurilishida tush motivining o'rni

Tushda ko'pincha kelajakda yuz beradigan voqelik haqida ramzlar orqali xabar beriladi. Tushlarga xos shu muhim xususiyat ulardan badiiy asarlarda ifoda vositasi sifatida foydalanishga keng yo'l ochgan.

Tush hodisasi va ramziylik bir-biri bilan bog'liq ekanligini hozirgi zamon ruhiy tahlil (psixanaliz) ta'limotining yirik mutaxassislaridan biri Erix Fromm ham ilmiy isbotlab bergan edi: “Turli kishilar turlicha afsona yaratishlari turgan gap”, xuddi shunga o'xshab turli odamlar turlicha tushlar ko'radi. Biroq shunaqangi

rang-barang bo'lishlariga qaramay, barcha afsona va tushlarda bitta umumiylik bor: ularning hammasi bitta umumiy tilda yozilgan".⁵ Tabiiyki, olim bunda "bitta umumiy til" deganda, ramziylikni nazarda tutmoqda.

Darhaqiqat, tushdagi har bir tasvir, narsa va hodisa, xatti-harakat va holat o'zining ma'nosiga – ta'biriga ega. Tushlar asosan, ramziy ma'nosiga qarab ta'birlanadi.

Tushlar bevosita undagi ramziy detallarga tayanib izohlanishi ta'bir hisoblanadi. Bunda ko'proq xalqona e'tiqodga tayanib, tush ramzlariga munosabat bildirilishi alohida e'tiborni tortadi. Shu an'anaga muvofiq zamonaviy adabiyot vakillari ham o'z asarlarida tush tasviridan foydalanar ekanlar, bevosita ana shu an'anadan chekinmasliklari kuzatiladi. Hech qachon ijod ahli orasida tushga aloqador ramziy obrazlarni xalq e'tiqodiga teskari ma'noda qo'llash holati ko'zga tashlanmaydi.

Badiiy asarlarda ko'pincha ramziy mohiyatga ega tushlar qo'llanadi va tushda kechgan voqelikning hayot voqeligi bilan mutanosib kelishi vositasida yuksak ta'sirchanlikka erishiladi. Tush ta'birlarida ramziylik kuchli bo'lgani sabab, ular badiiy vosita sifatida qo'llanganda asarning estetik ta'sirchanligini kuchaytirib, badiiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tushni ta'birlaganda, asosan, ko'rilgan voqeaning yaxshi yoki yomonligiga, tasvirning rangiga, tush ko'rilgan vaqtga, hafta va oy kunlariga e'tibor beriladi. Masalan, tushda yaxshi va yoqimli narsalar, xushmanzara joylar, oq rang – baxt va ezgulik, omad ramzi; sovuq, yoqimsiz narsa va hodisalar, xarobazor esa buning aksi – baxtsizlik, ranju alam timsoli bo'ladi.

Biroq badiiy asarlarda hammavaqt ham ramziy xarakterdagi tushlardan foydalanaverilmaydi. Bu jihatdan ular ramziylikka ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Shunga ko'ra tushlar: a) ramziy mohiyatga ega tushlar; b) reallikka yaqin tushlar tarzida ikki guruhga ajratilishi lozim.

Ramziy tushlarda ramziy mohiyatga ega predmetlar, joylar, holatlar, xatti-harakatlar mavjudligi ko'zga tashlansa, reallikka yaqin tushlarda tasvirlangan

⁵ Фромм Э. Унутилган тил. // "Миллий тикланиш" рўзномаси, 1996 йил, 20 февраль.

voqelik hayotda aynan ro'y berishi kuzatiladi. Ammo badiiy asarlarda bunday tushlar juda kam keltirilganligi kuzatiladi. Chunki hayotda ham tush bilan hayot voqeligining aynan kelishi juda siyrak uchraydigan hodisadir.

Hozirgi zamon fani ham, qadim ta'birnomalar ham tushlarning, asosan, ramziy xarakterga egaligini tasdiqlaydi. Tushlar qanday bo'lsa shundayligicha real voqelikda sodir bo'lishi juda kamdan-kam kuzatiladigan yoki umuman voqe bo'lmaydigan hol ekanligini har bir kishi o'z tajribasidan ham yaxshi biladi. Ammo ba'zan insonning o'ngida ko'rgani uning tushida aks etishi mumkin.

Badiiy adabiyotda ko'proq ijodkorlar to'qima tushlardan foydalanishadi. Shuning uchun ularda ramziylik kuchli bo'lishiga, shu ramziylikning hayot voqeligi bilan muvoziy kelishiga katta ahamiyat beriladi. Buning uchun, avvalo, an'anaviy tush ta'birlariga xos belgilarga murojaat qilinadi.

Sharqu G'arbda tush va uning ta'birlariga oid bir qancha adabiyotlar mavjud. Har bir voqea-hodisalar o'ziga xos ma'noda qabul qilingani kabi tush ham har bir millatda va hatto bir millatning o'zida turlicha ta'bir qilinishi ko'zga tashlanadi. Bunda har bir xalqning e'tiqodiy qarashidan kelib chiqib masalaga yondashilishi kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, G'arb tillaridan tarjima qilingan asarlarda qo'llangan tush ramzlari o'ziga xosliklarga ega bo'lishini anglash lozim. Chunki tush ramzlari G'arb va Sharq ta'birnomalarida mohiyatan bir-biridan farq qiladi. Masalan, Sharq ta'birnomasiga ko'ra tushda paxtani ko'rish kelayotgan baxt, quvonchli voqea ramzi bo'lsa, G'arb ta'birnomalariga ko'ra paxta – g'am-alam, ko'ngilsiz voqea timsolidir.

Badiiy asarda tush ramzlari ko'pincha hayotiy haqiqat bilan mutanosib kelishi kuzatiladi.

Adabiy asarni bir butun qilib yaratishda, uning qismlarini, syujet voqealarini o'zaro bog'lashda, qahramonlar harakat qiladigan sharoitni gavdalantirishda turli-tuman kompozistion vositalardan foydalaniladi. Badiiy qoliplash, kiritma voqea, epigraf, portret, peyzaj, detal, lirik chekinish ana shunday vositalar jumlasiga kiradi. Bu kompozistion vositalarning hammasi har bir asarda uchrashi shart emas. Kompozistion vositalar asar g'oyasini ochishda muayyan rol o'ynashiga ko'ra

o'ziga xos mazmundorlik kasb etadi. Xuddi ana shunday kompozistion vositalar sirasiga juda ko'p badiiy asarlarda uchraydigan tush epizodlarini misol keltirish mumkin. Badiiy asarlardagi tush epizodlarini kuzatish shuni ko'rsatadiki, tush ularda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, tush badiiy ijodda ramzlarni qo'llashga vosita bo'lib keladi. Ma'lumki, nasriy asarlarning badiiyatini oshirish lirik asarlardagi kabi oson emas. Ular epik bayonga asoslangani sababli shunday. Shuning uchun ularda tushdan foydalanilsa, asarning badiiyati, ta'sirchanligi kuchayadi. Hajmi ixchamlashadi. Shu bilan birga ularda ramziy tasvir vujudga keladi. Chunki tushlar ramzlarga juda boyligi bilan ajralib turadi. Badiiy asarlarda tushlar bu jihatdan uch xil: a) tush bilan bog'liq ramzlar; b) tush bilan bog'liq holatlar; v) tush bilan bog'liq kechinmalar ko'rinishida uchraydi.

Tushning badiiy asar qurilishida tutgan o'rni va kompozistion vazifasi ham uch xildir. U badiiy asar syujetining yo boshlanishida, yo o'rtasida, yo oxirida kelib, tugunni yo voqealar rivojini, yo yechimni hosil qiladi. Asar boshida kelgan tushlar, asosan, tugun vazifasini, asar oxirida kelgan tushlar yechim vazifasini o'tasa, asar o'rtasida keluvchi tushlarning vazifasi rang-barangdir.

Tushni badiiy vositaga aylantirishda uni asarning qay o'rnida kiritish muhim ahamiyatga ega. Chunonchi, asarning boshida keltirilishi kerak bo'lgan tushni aslo asarning o'rtasiga yoki oxiriga ko'chirib bo'lmaydi va yoki aksincha. Agar asardagi tush lavhasini egallab turgan o'rnidan boshqa joyga ko'chirilsa, birinchidan, asar kompozistiyasi buzilsa, ikkinchidan, voqealar bayonidagi izchillikka putur etadi.

Badiiy asarlarda eng ko'p uchraydigan holat – avval tushning ko'rilishi va keyin uning amalga oshishidir. Aslida hayotda ham shunday bo'ladi: kishi avval kelajak voqealardan darak beruvchi bashoratomuz tushlar ko'radi, keyin esa shu tush amalga oshadi. Hech bo'lmaganda tushni ko'rgan kishi bo'lib o'tgan voqeadan bexabar bo'ladi, shu voqeadan darak beruvchi tushni ko'radi, keyin esa bo'lib o'tgan voqeadan ogoh bo'ladi. Tush va unga bog'liq voqealar badiiy asarlarda xuddi ana shu tartibda berilishi bilan xarakterlanadi.

Demak, tush epizodini badiiy asar syujetining qay bir o'rniga joylashtirish ham uni badiiy vositaga aylantirish yo'llaridan biridir.

Badiiy asardagi biror unsur o'z-o'zicha mavjud bo'lolmaydi. Undagi har bir qism zanjirning halqasi kabi bir-birining ichiga kirib o'tgan bo'ladi. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralsa, badiiy asar tarkibida tushlarning ham boshqa kompozition vositalar bilan munosabati muayyan qonuniyatlar asosida belgilanishi anglashiladi.

Tushning tugun vazifasi. Ayrim asarlarda asosiy voqea bevosita tush ko'rish epizodidan boshlanadi. Shu tushning natijasi bora-bora asarda ko'rina qoladi. Shubhasizki, bu tush epizodi olib tashlansa, qissa boshsiz odamga o'xshab qoladi. Umuman olganda, tugun vazifasini o'tayotgan mazkur tush epizodi asar voqealarini uyushtirib, bog'lab turibdi.

Badiiy asarlardagi tush ko'rinishlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda asosiy voqea-sarguzasht bilan bog'lanmagan, bosh g'oyani ochishga yo'naltirilmagan birorta tush epizodi yo'q. Hatto aksariyat tushlar yo syujetning bosh tugunini, yo yondosh voqealar tugunini hosil qilishi bilan asar syujetida muhim rol o'ynaydi. Bu tipdagi tush ko'rinishlarini asar tarkibidan olib tashlashning sira iloji yo'q.

Ba'zi asarlar bir yoki bir necha kishining butun hayotini qamrab oladi. Qamrov ko'lamining shu qadar kengligi bois har bir hikoya bo'lgudek bir necha voqealar asar syujetidan o'rin oladi. Har bir voqeaning esa, asarning umumsyujetidan tashqari o'z boshlanish nuqtasi, rivoji va echimi mavjud bo'ladi. Asarlarda uchraydigan tush epizodlari ko'p hollarda ana shunday yondosh syujet chiziqlarining boshlanish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Qahramon bir tush ko'radi, shu tush sabab bo'lib uning yangi sarguzashtlari boshlanib ketadi.

Tush epizodlari aksariyat hollarda asarlarning o'rtasida yoki syujet avvali va rivojida kelishi kuzatiladi. Bunday tush motivi asarda bayon qilinayotgan oldingi voqeliklarni keyingi voqeliklar bilan bog'lash uchun xizmat qilgan.

Tushning yechim vazifasi. Syujet oxirida keladigan tushlar ko'pincha echim vazifasini bajarib kelishi kuzatiladi. Ammo ular nisbatan kamroqdir.

Tushning sarlavha vazifasi. Tush sarlavhaga ko'tarilgan asarlarda tush motivi kompozistiyani shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib kelib, asardagi barcha voqealarni o'z atrofiga birlashtiradi va bosh g'oyani ochishga xizmat qiladi.

Voqelikni tush sifatida bayon etish juda kam asarlarda uchraydi. Bu jihatdan turk adibi Aziz Nesinning "Dahshat" hikoyasi e'tiborni tortadi.

Tushning badiiy vosita sifatidagi vazifasi. Tush motivi badiiy asarlarda badiiy vosita sifatida maydonga chiqishi kuzatiladi. Ammo tushni badiiy vositaga aylantirish qanday yo'llar bilan amalga oshiriladi? Bunda nimalarga e'tibor beriladi? Tushni badiiy vositaga aylantirishning badiiy asardagi o'ziga xosliklari nimalarda ko'rinadi?

Tushni badiiy vositaga aylantirishda ko'zga tashlanib turadigan birinchi holat asarning bosh g'oyasigagina xizmat qiladigan tush ko'rinishlarini asarga olib kirishda ko'rinadi. Asar syujetida har qanday tushlarga o'rin berilavermaydi. Chunki yozma badiiy syujet qurilishida poetik vosita sifatida qo'llanadigan tushlar mazmunan ifodalanayotgan voqelikka mos tushgandagina kutilgan natijani berishi mumkin. Aks holda u ortiqcha narsaga aylanib qolishi hech gap emas. Ba'zi asarlarda tush epizodlari asar kompozistiyasini uyushtiruvchilik vazifasini bajaradiki, ularsiz asosiy voqeani bayon qilish va asosiy g'oyani ochish mumkin bo'lmay qoladi.

Tushning asar g'oyasini ochishda umumiy mazmuni yoki konkret mazmuni ahamiyat kasb etishiga ko'ra ularga asar syujetidan o'rin beriladi, ya'ni tafsiloti bilan yoki tafsilotsiz hikoya qilinadi. Modomiki, tush umumiy mazmuni bilan ham o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olar ekan, ular batafsil tasvirlab o'tirilmaydi. Bu ham tushning asarda poetik vosita ekanligini dalillaydi.

Tushlar ko'pincha qahramonga nimanidir anglatish, biror sirni ochish zarurati tug'ilgan, uni kim bilandir tanishtirish shart bo'lgan o'rinlarda yordamchi vosita bo'lib maydonga chiqadi.

O'rnida qo'llangan tush badiiy asarda milliy xarakterlarni yaratishda, ular ruhiyatini ochib berishda, shu bilan birga yozuvchi mahoratini belgilashda ko'maklashadi. Chunki tush motivi badiiy asarlarda ijodkorlarning epik bilimini,

xalq an'analaridan qay darajada xabardorligini, iqtidori va salohiyati, poetik mahoratini namoyon qiladigan muhim vositadir.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, tushlar poetik vosita sifatida badiiy asarlarda quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Badiiy asarlarda psixologizmni chuqur lirizm orqali ifodalashga yordam beradi.
2. Obrazlar xarakterini chuqur tadqiq etishga imkon beradi.
3. Voqealar rivojida dramatismni chuqurlashtiradi.
4. Asar kompozitsion qurilishini shakllantiradi.
5. Katta mazmunni ixcham badiiy shaklga joylashtiradi.
6. Syujet elementlari orasida o'zaro bog'lanishni vujudga keltiruvchi badiiy vosita – kompozitsion bog'lama vazifasini bajaradi.

Tush motivining etakchi vazifasi, asosan, asar kompozitsiyasining syujet qismlarini o'zaro bog'lab kelishida kuzatiladi. Bunda ijodkorlar yo bir tushdan, yo bir necha tushdan foydalanishlari mumkin.

Badiiy asarlarda keltirilgan tushlarning hajmi ham har xil bo'ladi. Ularning ba'zilar syujetli bo'ladi. Bunday syujetli tushlarni hikoya ichida keltirilgan hikoya deb qarash mumkin.

Tush motivi xarakteriga ko'ra har xil bo'lishi mumkin. Aytaylik, ayrim tushlar asar davomida o'z tasdig'ini topib, qahramonlar hayoti va taqdirini qamrab oladi. Ba'zi tushlar asar qismlarini bog'lash uchun keltiriladi. Ba'zilar esa qahramonlar hayotining u yoki bu davriga taalluqli bo'ladi.

Nasriy, lirik va dramatik asarlarda tushning o'rni va vazifalari. Tush parchalaridan badiiy ijodning har bir turida o'ziga xos ko'rinishda foydalanilishi kuzatiladi. Jumladan, tushlar lirik, nasriy va dramatik turdagi badiiy asarlar syujetida turlicha o'rin egallaganligi ko'zga tashlanadi. Yozma adabiyotda tush ishtirok etgan lirik, liro-epik, nasriy va dramatik asarlar juda ko'p. Tush ularning har birida o'ziga xos vazifada namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Nasriy asarlarda tush ko'proq poetik tugun va poetik echim vazifasida ishtirok etib, asarning badiiy-estetik qimmatini oshirishda muhim ahamiyat kasb

qilsa, she'riy asarlarda voqebandlikni yaratishda xizmat qiladi. Dramatik asarlarda ko'pincha qahramon ko'rgan tushini suhbatdoshiga etkazib, shu tushning ta'biri xususida fikr yuritiladi. Tush ta'biri esa, albatta, asar echimiga turtki beradi. Voqealar rivojini ta'minlashga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Dramatik asarlarda qahramonlar ko'rgan tushini o'zaro muhokama qiladilar. Ko'rgan tushlariga ishonchini bildirib, qalb tug'yonlarini ifoda etadilar.

Lirik, nasriy va dramatik asarlarda tushning bayoni, tafsiloti, ta'birini ifodalashda asar yozilayotgan shaklning o'ziga xos xususiyatlari, albatta, inobatga olinadi. Masalan, she'riy asarlarda ular nazmiy ko'rinishda, nasriy asarlarda esa nasriy ko'rinishda, dramatik asarlarda esa qahramonlarning suhbatida ichida beriladi.

Lirik asarlarda, odatda, lirik qahramonning (shoirning) tushi va bu tushning shoir kayfiyatiga ko'rsatgan ta'siri, his-kechinmalari ochib beriladi.

Nasriy asarlarda yo yozuvchining, yo asar qahramonining tushi keltiriladi. She'rlarda faqat bitta tush keltirilsa, nasriy hamda dramatik asarlarda birdan ortiq tush keltirilishi kuzatiladi. Qolaversa, she'rlarda ko'pincha tushlar qisqa, aniq va lo'nda ifoda etilsa, nasriy va dramatik asarlar syujetida keltirilgan tushlar ko'pincha keng, batafsil bayon etiladi. Ularning hajmi tush tafsilotiga qarab har xil bo'ladi.

Tushlar an'anaviy ifoda qolipiga ega. Ular ko'pincha emish fe'li orqali aytiladi. Voqelik o'tgan zamon hikoya fe'li shaklida –i(b) qo'shimchasi bilan tugagan ravishdoshga birinchi yo ikkinchi shaxs fe'li bilan ifodalanib keladi. Chunki tush ruhiy olam hodisasi sifatida talqin qilinishi bois shunday ifodalanadi. Tush har doim ishonch yoki ishonchsizlik, hayrat yoki qo'rqinch, vahima, ko'tarinkilik kabi turlicha ruhiy holatlarni keltirib chiqaradi. Inson kayfiyatiga har xil ta'sir ko'rsatadi. Tush mazmuni bilan kayfiyatning aloqadorligi badiiy asar yaratishda juda qo'l keladi. Chunki yozuvchi o'zi ifodalayotgan mazmunni tush vositasida ramziylashtirib, o'quvchilar kayfiyatiga turlicha estetik ta'sir ko'rsata oladi.

Tush motivi ifodalangan badiiy matnlarning poetik sintaksisi o'ziga xosligi kuzatiladi. Masalan, ular da undov so'zlar, ikki bosh bo'lakli yig'iq sodda gaplar ko'p qo'llanadi.

Tush hodisasi zamon tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Unda yo bo'lib o'tgan, yo bo'lish ehtimoli bo'lgan voqea-hodisalar talqini uchraydi.

II BOB. UYG`ONISH DAVRI ADIBLARI ASARLARIDA TUSH MOTIVINING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

II. 1. Jahon adabiyotida tush motividan foydalanishning an'anaviyligi

Tush motivi antik davr asarlarida ham ko'p qo'llanib kelgan an'anaviy motivlardan biridir. Tush motivi Gomer dostonlari syujetida ham uchraydi va o'ziga xos badiiy-kompozistion vazifa bajarib kelgani kuzatiladi. Jumladan, "Odissey" dostonida **Telemaxning tushi** uchraydi.

Odissey Itaka oroliga etib kelgach, nima qilishini bilmay turganda Afina joniga oro kiradi va nimalar qilishi kerakligini unga aytadi, uni bir tilanchi qiyofasiga kiritib, sodiq quli Evmeyning chaylasi tomon yo'lga solib yuboradi. Cho'pon daydi qalandarni mamnuniyat bilan kutib oladi. U Odisseyi ko'rganini uning muqarrar Itakaga qaytib kelajagini aytadi. Shu asnoda **Afina Telemaxning tushiga kirib, tezlik bilan vataniga qaytib, to'g'ri Evmey chaylasiga borishni buyuradi.** Telemax tezda yurtiga qaytib otasini uchratadi. Ota-bola saroyga keladilar. Shu kuni Penelopa Odisseyning kamalagi bilan o'q-yoylarini jazmanlari huzuriga keltirib, kimda-kim shu kamalakdan o'q uzib o'n ikki xalqadan o'tkaza olsa, o'sha odamga tegajagini aytadi. Jazmanlari hatto kamalakning ipini ham torta olmaydilar. Shu topda Odissey o'zining kimligini sodiq quli Evmey va boshqa ishonchli odamlariga bildirib, jangga tayyor turishini aytib qo'yadi. Keyin u ham o'rta chiqib jazmanlardan kamalakni otib ko'rish uchun izn so'raydi. Ular Odisseyi kalaka qilib ustidan kuladilar. Telemax jazmanlarning noroziligiga qaramay, otasiga kamalakni olib boradi. Odissey birinchi o'qni 12 ta xalqadan o'tkazib yuboradi va ikkinchi o'qni jazmanlarning eng ashaddiysi Antinoyga uzadi, so'ngra Evrimaxni ag'daradi, shu tariqa jazmanlarni va xoinlarni tor-mor keltirib, Penelopa bilan tinch-totuv hayotini izga tushiradi. Doston shu tariqa yakuniga etadi.

Esxilning adabiy faoliyati haqidagi hikoyalarda ham tush motivi uchraydi. Rivoyatlarga qaraganda, Esxil ijodini juda erta boshlagan. Shoir hali o'spirinlik

davridayoq, **Dionis tushiga kirib, uni tragediya yozishga undaganmish.** Qadimgi olimlarning aytishlariga qaraganda, Esxil nihoyatda mahsuldor ijod qilgan yozuvchi ekan. Biroq, uning 90 ga yaqin tragediyadan iborat boy merosidan bizga qadar faqat ettitasi etib kelgan. Bular: “Eroniylar”, “Fivaning etti dushmani”, “Iltijogo’ylar”, “Zanjirband Prometey”, “Oresteya” tragediyasiga kiradigan “Agamemnon”, “Xoeforlar” hamda “Evmenidlar” tragediyalaridir.

Bu tragediyalar orasida “Eroniylar”dan boshqasi mifologik mavzularda yozilgan. “Eroniylar” tragediyasi zamona mavzusida yozilgan yagona asardir. Eron-Yunon urushi (shoirning o’zi ham shu urushda qatnashgan) bu tragediyaning asosiy mavzusidir. Voqea Eron shohi saroyida kechadi. Taxtning sadoqatli keksalardan iborat xor to’dasi saltanatning ulug’ligi podsho Kserks (Kaykovus) boshchiligida Yunon urushiga jo’nagan son-sanoqsiz Eron lashkarlarining qudrati haqida kuylaydi. Shu bilan birga xor ijrosining uzoq yurtga ketgan jangchilar taqdiri haqida o’y-tashvishga tushishi, ayniqsa, **podsho Kserksning onasi Atossaning tahlikali tushlari** qo’shilib, xor ijrochilarining ohangida tashvishlar ortadi.

Kserks lashkargohidan bir chopar keladi-da Salamin shahrida bo’lib o’tgan dahshatli janglar natijasida Eron flotining tor-mor etilganini, son-sanoqsiz lashkarlarning qirilganligini xabar qiladi. Asarning eng muhim o’rni chopar hikoyasidir. Bu hikoyada Afina demokratik tuzumiga va o’z yurtining ozodligi yo’lida jonbozlik ko’rsatgan Yunon xalqiga tahsinlar o’qiladi. Shundan keyin malika Atossa eri marhum Doroning qabri ustida qurbonlik so’yib, uning ruhini, ya’ni arvohini chaqiradi. Saroy ahli qarshisida paydo bo’lgan Doro bu falokatning hammasi Kserksning takabburligi, mag’rurligi va ota amrini buzib, ma’budlarni behurmat qilganligi tufayli yuz berganligini aytadi. Doroning arvohi Plateya shahrida Eron lashkarlarining bundan ham ortiqroq mag’lubiyatga uchrashlarini va shahidlarning sag’analari avlod-avlod nazarida o’zboshimchalikning abadiy, mash’um xotirasi bo’lib qolajagini karomat qilib, ko’zdan g’oyib bo’ladi. Shu payt saroyga Kserksning o’zi kirib keladi. Uning ustidagi shohona liboslari tilka-tilka yirtilgan, afsus-nadomatlardan tinkasi qurigan, kulfat-mashaqqatlardan qaddi

bukilgan... Voqea saroy ahlining nolalari, ohu-fig'onlari bilan tugaydi. Xavf-xatarning asta-sekin kuchayib borishi musibatning tobora zo'rayishini shoir bu asarda juda yuksak mahorat va san'atkorlik bilan ko'rsatadi.

Trilogiyaning birinchi qismi "Agamemnon" tragediyasidir. Bu asar Klitemnestra jinoyatlariga bag'ishlangan. Asar voqeasi Argos shahrida, Agamemnon saroyi oldida boshlanadi.

Trilogiyaning ikkinchi qismi "Xoeforlar" tragediyasi bo'lib, taxminan "duogo'y ayollar" degan ma'noni bildiradi. Asarda xor vazifasini bajaruvchi bu ayollar Klitemnestraning topshirig'i bilan Agamemnon qabri ustida duo o'qib, uning arvohiga bag'ishlaydi. Agamemnonning yosh o'g'li Orest ota yurtidan uzoqda Argos hukmroniga xayrixoh bir podshoning saroyida uning o'g'li shahzoda Pilad bilan birga ulg'ayadi. Orest ulg'ayib aqli to'lishgach, otasining qotillaridan o'ch olish vaqti kelganini sezadi, lekin qo'lini qonga botirishdan qo'rqadi va maslahat uchun Apollon ibodatxonasining koiniga maslahatga boradi. Koin unga farzandlik burchini ado etishning muqaddasligi, bu yo'lda andishaga borib, qo'rqoqlik qilgan kishining boshiga og'ir kulfat tushishini aytadi. Tragediyaning asosiy voqeasi ana shu erdan boshlanadi.

Asar boshlanishida Orest qabristonda, Agamemnon sag'anasi ustida, do'sti Pilad bilan birga otasining qabrini ziyorat qilib, uning ruhidan madad so'rab kelgani aks etadi. **Shu kechasi Klitemnestra ham mudhish tush ko'radi** va erta tongda qizi bilan xorchi xotinlarni marhum erining qabriga duo o'qib, ruhini tinchlantirish uchun yuboradi. Orest singlisiga o'zini tanishtiradi va qasos olish rejalarini birgalikda tuzadi. Orest eski kiyimlar kiyib, do'sti bilan birga saroyga kelib Orestning o'lganini, bu xabarni bir o'tkinchidan eshitganini aytadi. Bu xushxabardan shodlangan Klitemnestra darhol Egisfga odam yuboradi. Egisf bu xushxabarni o'tkinchining o'z og'zidan eshitish ishtiyoqida shoshib-pishib eshikdan kirib kelishi bilan ikkala do'st unga xanjar sanchadilar. Klitemnestra xato qilganligini anglab, o'g'lining oyog'iga yiqilib yolvoradi. Bergan sutini pisanda qiladi. Orest anchagina bo'shashib qoladi, ammo Piladning daldasi bilan u yana o'ziga kelib, onasini saroy ichiga olib kiradi. Bir vaqtlar Agamemnon va

Kassandra o'ligi yotgan vannada endi Egisf va Klitemnestraning o'ligi yotardi. Orest qasos burchini ado etib, vasvasaga tushib qoladi, ko'ziga intiqom ma'budalari ko'rina boshlaydi, yigit ularning ta'qibidan qutilish maqsadida panoh istab Apollon ibodatxonasiga yuguradi.

O'z onasini o'ldirgach, Orest qalbida qo'zg'algan vijdon azoblari va qotilning gunohi atrofida boshlangan ma'budlarning kurashi trilogiyaning uchinchi qismi "Evmenidalar" tragediyasida tasvirlangan.

Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakillaridan biri Dantega shuhrat keltirgan birinchi asar 1291-1292 yillarda tuzilgan va Beatrichega bag'ishlangan "Yangi hayot" she'rlar to'plami bo'lib, u Evropa adabiyoti tarixida birinchi avtobiografik asardir. To'plam nasriy hikoyalar bilan bog'langan 30 ta she'rdan iborat. She'rlar 1283-1291 yillarda yozilgan bo'lib, xronologik tartibda joylashtirilgan.

Dantening butun ijodi Beatriche ismli qiz bilan bog'liq. Beatriche shoirning otasiga yaqin kishining qizi bo'lib, to'qqiz yoshli bo'lajak shoir sakkiz yashar qizchani ko'rib, butun umr bo'yi uning maftuni bo'ladi. Beatriche lolarang libosda edi. Shu kundan boshlab Dante ishq ma'budi Amorning bandasiga aylandi. Dante Beatricheni hammasi bo'lib besh marta ko'rgan, xolos. Shoirning unga bo'lgan muhabbati inson haqidagi oliy ideal bilan bog'liq bo'lib, unga uylanishni xayoliga ham keltirmagan, unga uylanishni shakkoklik deb bilgan. Beatriche boshqa odam bilan turmush qurib, 1290 yili 24 yoshida vafot etadi. Shoirning Beatrichega bo'lgan muhabbati keyinchalik ilohiy mazmun kasb etib, Dante ijodining hamma bosqichlarida eng oliy insoniy ideallar timsoli sifatida talqin qilinadi.

Oradan to'qqiz yil o'tgach, shoir mahbubasini ko'chada qordek oppoq libosda uchratadi, qiz shoirga salom beradi. Beatrichening salomi, ta'zimi yosh shoirni mutloq maftun etadi, ruhiga baxt-saodat baxsh etadi. Bundan keyingi bir necha yilni shu uchrashuv ta'sirida o'tkazadi. **Uchrashuv kechasi shoir tushida ishq ma'budi Amor olov rangli bulut ichida Beatricheni olib ketayotgani va uxlab yotgan shoirning yuragini unga majburan edirayotgani va uni osmonga**

uchirib olib ketayotganini ko'radi. Shoir uyg'onib "Oshiq qalblarga..." deb boshlanuvchi sonetini yozadi.

Beatriche vafotidan keyin Dantening ishqqa bo'lgan munosabatida o'zgarish yuz beradi.

To'plamning birinchi qismida Dante Beatrichega oshiq, uning yagona orzusi mahbubasini ko'rish, rohat bag'ishlovchi salomini eshitish bo'lgan, xolos. Shoir Beatricheni eng oliy fazilatlar egasi, iffatli inson sifatida tasvirlaydi. Quyosh borliqqa nur sochganidek, u ham muhabbat, marhamat, mehr-shafqat, fazilat, oliy axloq, odob, umuman insonga xos bo'lgan eng oliy xususiyatlar nurini sochadi. Eng muhimi, bu xususiyatlardan atrofdagilarni bahramand qiladi, ularni axloqiy va aqliy etuklikka erishuvga chorlaydi.

Tushda ba'zan inson muayyan tasavvurlar ta'sirida o'ngida hal eta olmagan jumboqlariga echim topishga muyassar bo'ladi. Shuni inobatga olib, tush insonning ikkinchi umri sifatida e'tirof etiladi. Binobarin, hayotda ayrim mashhur insonlarning tush orqali o'z kashfiyotlarini amalga oshirganliklari yoki yuksak g'alabalarni qo'lga kiritganlari ma'lum. Jumladan, franstiyalik mashhur faylasuf, matematik, fizik va fiziolog Rene Dekart karomatli tushlar ko'rib, ko'p ilmiy yutuqlarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'lgan bo'lsa, franstiya imperatori Napoleon Bonapartning ham Vaterloo yaqinidagi so'nggi jang oldidan karomatli tush ko'rgani haqida ma'lumotlar bor.

Ko'rinadiki, inson ba'zan tushida ham hayotini, faoliyatini davom ettiradi, go'yoki tush uzluksiz hayotiy voqealarning bir qismiga aylanadi.

Ana shu kabi e'tiqodiy qarashlar tush va uning ta'birlaridan badiiy asarlar syujetida hayot haqiqatini ifodalashda foydalanish tajribasini shakllantirgan. Bunga intilish nafaqat Sharq, balki G'arb adabiyoti durdonalarida ham yorqin kuzatiladi. Aytaylik, Homerning "Iliada" va "Odisseya" dostonlarida tangrilar odamlarga o'z amrlarini etkazmoq yoxud ularni xavf-xatardan ogoh etmoq uchun tushda inson qiyofasida namoyon bo'ladilar.

Jahon adabiyotida tush so'zi asar nomi darajasiga ko'tarilgan ijod durdonalari ham bor. Jumladan, Shekspirning "Yoz kechasidagi tush", Didroning "d. Alambning tushi" (1769 y.) asarlari shular sirasiga kiradi.

II. 2. Uyg'onish davri adabiyotida tush motividan foydalanish tajribasi

"Uyg'onish" so'zining dastlabki ma'nosi "qadimgi madaniyatni qayta tiklash, yangitdan oyoqqa bostirish demakdir. G'arbda u "Renessans" deb yuritiladi. Yevropa Uyg'onish harakatining ilk vatani Italiyadir. Uyg'onish davri to'la ma'noda XIV asrning ikkinchi choragidan boshlanib, XVII asrgacha davom etdi. Uning o'ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat edi:

1. Uyg'onish davrining ulug' zotlari xurofot asoratlariga, zohidlik g'oyalariga qarshi ayovsiz kurash boshlagan edi.

2. Uyg'onish davrining ulug' allomalari qo'lida antik dunyoning ilm-u fani, san'at va adabiyoti, falsafiy ta'limotlari eng kuchli qurol bo'lib xizmat qildi.

3. Mamlakatning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez sur'atlar bilan rivojlandi.

4. Bu davr dastlabki kapital to'plash davri edi. Shuning uchun ishchilarni bir korxonaga birlashtirish, ularni ekspluatatsiya qilish kuchaydi. Boy tabaqalar hamda ezilgan kambag'al guruhlar o'rtasida sinfiy kurash keskinlashib ketdi.

5. Xalqning noroziligi, inqilobiy ko'tarilishidan qo'rquvga tushgan burjuaziya ba'zi shaharlarda respublika tartibini emirib, monarxiya tuzumini o'rnatdi.

6. Jonli italyan tilida emas, latin tilida ijod qilishga moyillik kuchaydi.

7. Eski tarbiya tizimiga katta o'zgarishlar kiritildi.

8. Uyg'onish davrida italyan tasviriy san'atida ham jiddiy burilish sodir bo'ldi. Shaharlarning taraqqiy etishi natijasida arxitektura, haykaltaroshlik va rassomlik san'ati, badiiy adabiyot kamol topdi.

Italyan Renessansi Yevropaning boshqa mamlakatlaridagi ijtimoiy harakatga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Fransuz, nemis va ispan gumanistlari antik madaniy merosni bevosita o'rganishlari bilan bir katorda, uni italyan mutafakkirlarining asarlarini o'kish orqali xam o'zlashtiradilar.

Italyan gumanist yozuvchilari klerikal ruhdagi adabiyotdan foydalanib, diniy syujetlarni real voqelik bilan bog'lashga intildilar. Yangi mavzuga murojaat etish badiiy tasvir usullarini ham o'zgartiradi. Bu hol, shubhasiz, O'rta asr adabiyotidagi majoziylik (allegorizm)dan realizmga qarab yo'l ochadi. Garchi yangi zamonning birinchi shoiri Dante ijodida hali simvolistik tasvirlar mavjud bo'lsa ham, lekin u asta-sekin kamayib boradi. Dastlabki gumanistlar Petrarka va Boccaccio asarlarida mavhum simvolik iboralar ikkinchi o'ringa qo'yilib, realizm esa birinchi o'ringa chiqariladi, voqelikni tipik ravishda, xarakterli detallar bilan aks ettirishga kirishiladi.

Uyg'onish davri adabiyotida tabiat manzarasini tasvirlash ham yangi ma'no kasb etadi. Bunday manzara Dante ijodidagi singari shoirning ruhiy holatini simvallashtirmaydi, balki o'zining cheksiz go'zalligi bilan inson his-tuyg'usini ko'zg'atuvchi va unga orom beruvchi manbaga aylanadi.

Uyg'onish davri yozuvchilari ijodida inson va uni o'rab olgan muhit, kishining cheksiz imkoniyatlari va qizg'in ehtiroslarini atroflicha aks ettirish muhim o'rin tutadi. Insonning his-tuyg'ulari yangi sharoitda O'rta asr hayotiga qarshi kuchli isyon ko'taradi. Petrarkaning sonetlari, turmush quvonchlari bilan to'la Boccaccio hikoyalari shunday ruh bilan sug'orilgan asarlardandir.

Uyg'onish davri realizmining ijobiy qahramonlari xarakterida beqiyos jasorat va mardlik mujassamlanadi. Shaxs erkini himoya qilgan yirik gumanistlar o'z kuch-qudratiga, xaq ishning tantana qilishiga ishongan, adolat uchun kurashuvchi, qalbi pok olijanob obrazlarni yaratish orqali Uyg'onish davrining hayotbaxsh ruhini ham aks ettiradilar.

Ispan Uyg'onish davri adabiyoti XV-XVI asrlarda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mamlakat tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq ravishda shaqllanib, unda ilg'or insoniy g'oyalar targ'ib qilindi. Bu davrda

lirika janriga nisbatan epik poeziya keng ko'lamda rivojlandi. Tarixiy, ta'limiy-didaktik, afsonaviy, diniy va boshqa turdagi poemalar yuzaga keldi.

XVI asrda yashagan yirik portugal yozuvchisi Luis de Kamoens (1524/25-1580) ijodida davr ruhi muvaffaqiyatli gavdalanadi. Kamoens bir necha komediya, bir qator she'r, shu jumladan baxtsiz sevgini ifodalagan 350 dan ortik sonet yozadi. Lekin u, asosan «Luziada» poemasi bilan mashhur. Asar Vasko de Gamaning Afrika orqali Hindistonga yo'l topishi va portugallarning bu mamlakatga kirib borishini tasvirlaydi. Shoir jamiyatdagi nuqsonlarni, saroy ahlining munofiqligini va hukmronlarning og'ir soliqlar solib, xalqni ezayotganligini ayamay fosh etadi. Poemada sinfiy qarama-qarshiliklar, ritsar sarguzashtlari, koloniyalarni bosib olishga intilish kabi davrning xarakterli xususiyatlari aks ettiriladi. Asarning ahamiyati shundaki, u insonning tabiatni o'rg'anishga qaratilgan faoliyati va urinishlarini qiziqarli qilib tasvirlash bilan birga, poeziyada realistik uslubning rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi.

Ersilya va Kamoens ijodlariga Gomer, Vergiliy kabi shoirlarning ta'siri bor edi. Bu ta'sir ularning poemalarida realistik epizodlar bilan birlikda fantastikaga berilishda ko'zga tashlanadi.

XVI asr oxirlarida rivojlangan va demokratik xarakter kasb etgan «Ayyorlik» romanida oddiy turmush manzaralari tasvirlanadi va shuning uchun ham, u aristokratik tabaqalarning didini aks ettirgan ristarlik va pastoral (cho'ponlik) romanlaridan tubdan farq qiladi. Fernando de Roxasning dialog shaklida yozilgan «Selestina» (XV asr oxiri) asari shu tipdagi romanning dastlabki namunasi hisoblanadi. Bunda ikki sevrishgan yosh – Kalisto bilan Melibeyaning fojiali sevgisi hikoya qilinadi. Yozuvchi ispan adabiyotida birinchi bo'lib ideallashtirilmagan sevgini, yoshlar muhitini realistik bo'yoqlarda tasvirlaydi.

XIV asr o'rtalarida Italiyada paydo bo'lgan Uyg'onish harakati XV asrning ikkinchi yarmida Evropaning bir qancha yerlarida boshlanadi. XVI asrning boshlarida esa Fransiyada vujudga keldi. Fransuz Uyg'onish davri adabiyotiga Italiya ma'lum darajada ta'sir ko'rsatdi. Bu vaqtda fransuz qiroli Fransisk I Italiyaga harbiy yurish boshlagan va katolik reaksiyasining boshlig'i – ispan qiroli

Karl V bilan kurash olib borayotgan edi. Italiyada bo'lgan fransuzlar Uyg'onish davri madaniyati bilan yakindan tanishadilar. Arxitektorlar Fransisk I ning istagi bilan Renessans usulida qasrlar quradilar. Gumanist yozuvchilar Dante, Petrarka va Bokkachcho asarlari fransuz tiliga tarjima qilinadi. Ular qadimgi antik madaniyat yodgorliklari qatorida katta qiziqish bilan o'rganiladi.

XVI asrda yashab ijod etgan fransuz Uyg'onish davrining yirik vakillari bilim doiralarining kengligi bilan ajralib turadigan yozuvchi, filosof, tarixchi, tabiatshunos ham edilar. Rable, Maro, Margarita Navarrskaya, Ronsar va boshqalar fransuz adabiyotining yuksalishiga katta hissa qo'shgan, voqelikka real yondasha bilgan ulug' adib va shoirlar sifatida mashhurdirlar.

Angliyada Uyg'onish harakati Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ancha keyin – XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida paydo bo'ldi. Feodal jamiyati sharoitida ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi O'rta asr tartiblari va uning g'oyaviy asoslariga putur etkazuvchi yangi gumanistik dunyoqarashning shaqllanishida muhim omil bo'ldi.

Uyg'onish davrining dastlabki bosqichi Angliyada Reformastiya harakati boshlangan vaqtga to'g'ri keldi. Din va cherkovga munosabat ingliz gumanistlari uchun eng muhim masala edi. Bu harakatning ikkinchi bosqichida cherkovning ham moddiy, xam ma'naviy qudratiga zarba berildi.

San'at va adabiyot gumanizm g'oyalarini yoyishda jangovar qurolga aylandi. Yozuvchi va olimlar antik madaniyat tarixini o'rganishga kirishdilar. Garchi Uyg'onish davri san'ati antik san'atdan o'zgacha sharoitda yaratilgan bo'lsa ham, gumanistlar din aqidalarini uloqtirib, qadimgi grek va Rim madaniyatining hayotbaxsh an'analarini tiriltirishga urinadilar.

Ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar adabiyotda ham o'z ifodasini topdi. Bu davrda xalq ommasida tug'ilgan norozilikni aks ettirgan yozuvchilardan biri ingliz shoiri Vilyam Lenglend edi. Vilyam Lenglend (taxminan 1332-1400) «Qo'shchi Pyotr haqidagi xayol» nomli allegorik xarakterdagi poemasida XIV asrning ikkinchi yarmidagi Angliya ijtimoiy hayotining o'ziga xos tomonlarini, ayniqsa, dehqonlarning og'ir ahvolini yoritib bergan.

O'rta asrlarda keng tarqalgan xayoliy ertak-videnie janrida yozilgan bu poema muqaddima bilan boshlanadi. Bahor kunlaridan birida qishloqqa, Malver qirlariga sayohatga chiqqan muallif suv bo'yida o'tirib dam olmoqchi bo'ladi va shu yerda ko'zi uyquga ketib, **qiziq tush ko'radi**: keng dalada qad ko'tarib turgan minora bilan qamoqxona o'rtasidagi maydonda katta olomon to'plangan. Ular orasida har xil toifadagi odamlar – savdogar, gadoy, ritsar, monax, masxaraboz va amaldorlardan tortib, oddiy qo'shchigacha bor. Qirning narigi tomonidan ko'ringan minora – Haqiqat, vodiydagi qamoqxona esa Yomonlik timsolidek namoyon bo'ladi. Bular, shubhasiz, majoziy obrazlar. Lekin maydon to'la turli tipdagi odamlar esa majoziy obrazlargina emas, balki ular orqali o'sha zamonning real voqeligi ifodalanadi.

Poemaning ikkinchi qismida muallif yana **tush ko'radi**. Uning ko'z oldidan qadrdon dala va uni gavjum qilib turgan odamlar o'tadi. Ular Idrok atrofini o'rab olganlar. Idrok gunohkorlarni tavba-tazarru qilishga chaqiradi. So'ngra kitobda yetti aybdor (Takabburlik, Shahvatparastlik, Ichqoralik, Adovat, Xasislik, Mechkay va Yalqov)ning tavba-pushaymonlari tasvirlanadi. Har bir gunohkorning o'ziga xos xususiyati bor. Masalan, Mechkay – araqxo'rlik singari yaramas xatti-harakatlarini tashlash va kechirim so'rash uchun cherkovga o'tlanadi-yu, lekin qahvaxonaga kirib, ulfatlar bilan yana ichib, o'zini eplay olmay qoladi. Yo'l-yo'lakay urinib-surinib, kiyim-boshlarining rasvosini chiqaradi. Hatto och sayoq it ham unga yaqinlashishga hazar qiladi. Uzoq uyqudan bosh ko'targan Mechkay xotinining huzuriga borib, bundan so'ng sira ham ichmaslikka so'z beradi.

Gunohkorlar tavba-tazarru qilganlaridan so'ng Idrok ularni Haqiqatni izlashga da'vat etadi. Biroq hech kim Haqiqatning qaerda ekanini bilmaydi. Odamlar bir ziyoratchidan: «Haqiqat nomi bilan ataluvchi bir azizni bilmaysanmi? U qaerda yashar ekan, u yerga olib boradigan yo'lni ko'rsatmaysanmi?» – deb so'raydilar. Ziyoratchi Haqiqat haqida undan birinchi marta so'ralayotganini va uni bilmasligini ma'lum qiladi. Shu vaqtda barchaning ko'zi odamlar o'rtasida tinchgina turgan oddiy yer haydovchi qo'shchi Pyotrغا tushadi. Qo'shchi Haqiqatni bilishini aytadi. U 50 qish mobaynida bu olijanob xo'jayin – Haqiqat

ixtiyorida ishlab, uning yerini haydab, ekin ekib, yigishtirib olayotgani, o'tloqlarda uning mollarini boqayotgani, uning yordami bilan xilma-xil hunarlarni o'rgangani va bunday mehnatdan sira ham zarar ko'rmayotganini aytib beradi va agar Haqiqat oldiga borishni istasalar, ularga eng yaqin va to'g'ri yo'lni ko'rsatishga tayyor ekanini bildiradi. Bu yo'l mehnat, kamtarlik, sabr-toqatdan iborat yo'ldir. «Sening ko'rsatgan yo'ling yaxshi, – deydilar odamlar, – faqat bu yo'lga hamma vaqt ishonchli boshliq lozim». Qo'shchi bir parcha yerini haydab, ekib bo'lib, keyin yo'l boshlashini aytadi. Odamlar, biz uzoq vaqt kutib qolarkanmiz-da, deydilar. Tannoz bir xotin, biz, ayollar vaqtni qanday o'tkazamiz, deb norozilik ham bildiradi. Ko'shchi Petr bunday ayollar bug'doylar solinadigan yirtiq qoplarni yamashlari, boshqa xotinlar esa jun va zig'ir poyasidan mato to'qish, bo'zdan kiyimlar tikishlari zarurligini, bu narsaga o'z bolalarini o'rgatishlarini, chunki tabiat yalang'och va yetim qolganlarni kiyintirishga buyurganini aytadi.

Poemada shoir oddiy qo'shchini haqiqat sari yo'l boshlovchi yagona kishi deb ko'rsatadi va qo'shchi Pyotr so'zlari vositasida umumiy mehnat g'oyasini ilgari suradi. Dehqon mehnati maqtaladi, jamiyatning sog'lomlashishi va yaxshilanishining asosiy manbai mehnat ekanligi, ishga qobiliyatli barchaning mehnat qilishi zarurligini ta'kidlaydi.

Yozuvchi «Qo'shchi Pyotr haqidagi xayol» nomli bu asarida dehqonlarning 1381-yil qo'zg'oloni arafasidagi isyonkor kayfiyatini aks ettirdi va xalq ongining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Qo'zg'olon rahbarlari o'z kurashlarida bu poemadan keng ko'lamda foydalanganlar.

Lenglend shoir sifatida o'rta asr adabiyoti an'analari bilan bog'langan holda, uning badiiy shakllari, masalan, **videnie - xayol (tush) janridan foydalandi** va unga yangi mazmun kiritdi. Uning asarlaridagi obrazlar, diniy adabiyotda bo'lganidek, «narigi» dunyodan emas, kurtuaz (saroy) sevgi romanining nazokatli doirasidan ham emas, balki o'sha vaqtdagi Angliyaning ijtimoiy hayotidan olingan. Bu narsa majoziy (allegorik) poemaga realistik ruh bagishlaydi: Bu hol asarning xalq o'rtasida keng shuhrat qozonishiga olib keldi.

Angliyada Uygʻonish davri yozuvchilarining oʻtmishdoshlaridan biri yirik gumanist Jefri Choser (1340-1400) boʻlib, u savdogar oilasida tugiladi. Choser 17 yoshida saroyda mahramlik xizmatiga kiradi. 1359 yilda qirol Eduardning Fransiya qarshi harbiy yurishida qatnashadi. Diplomatik ish bilan bir necha marta Fransiya (1377-1378), Flandriya (1377) va Italiyaga (1372-1378) boradi. U Italiyada Uygʻonish davri adabiyoti, jumladan, Petrarka va Bokkachcho ijodi bilan yaqindan tanishadi. Angliyaga qaytib kelgach, Londonda bojxona nazoratchisi vazifasida ishlaydi. Parlamentga saylangan (1386) Choser oʻz nutqlari bilan taxtga chiqqan qirol Richard II ga yoqmaydi va bu ishdan ketib uzoq vaqt moddiy qiyinchilikda yashaydi. Genrix IV taxtni egallagandan soʻng (1399) Choserning ahvoli bir oz yaxshilanadi. Lekin koʻp oʻtmay vafot etadi.

Dante kabi Choser ham oʻz sheʼrlarini ona tilida yozishni maqsad qilib oladi. **Uning «Gersoginya haqida kitob» (1369), «Shuhrat uyi» (1379-1384), «Qushlar kengashi» (1377-1382) poemalari «videnie» (tush) janrida yozilgan** boʻlib, ularda saroydagi turli marosimlar tasvirlangan.

Choserning katta sheʼriy romani «Troil va Krizeida» (1372-1384) italyan adabiyoti (Dante, Petrarka va Bokkachcho)ning bevosita taʼsiri ostida yaratilgan. Shoir, Troya shahzodasi Troilning kohin Kalxasning qizi Krizeidaga boʻlgan sevgisi haqidagi hikoyani saqlagani holda, psixologik xarakterdagi yangi poema yaratadi. Psixologizm, ayniqsa, Krizeidaning shubha va ikkilanishlarida, u bevafoqlik qilgandan soʻng Troilning chekkan azoblari tasvirida ravshan koʻrinadi.

Dastlab Troil har qanday muhabbatni rad otadi. Ishq azobini chekayotganlarni koʻrganida ularni mazax qiladi. Lekin uning oʻzi ham maʼbud Amur qonuniga binoan, sevgiga duchor boʻlib qoladi.

Asarning qimmatini yana shundaki, undagi qahramonlar antik liboslarda emas, balki oʻz zamonasining jonli kishilari qiyofasida gavdalanadi. Koʻpgina maishiy detallarning kiritilishi asardagi realizmni oshirgan.

«Realizmga asos solgan» (Gorʻkiy) Choser «Kenterberi hikoyalari»da Angliyadagi ijtimoiy tabaqalar hayotining tasvirini ilgorigiday mavhum obrazlar orqali emas, balki real turmush voqealari bilan bogʻliq ravishda keng aks ettiradi.

Asarning muqaddimasida bir to'lda odamlarning Kenterberidagi avliyo Tomas Beker qabrini ziyorat qilish uchun bahor paytida Garri Beyli mehmonxonasiga to'planib, shu yerdan yo'lga chiqishlari tasvirlanadi. Manzil uzoq bo'lgani uchun, Beyli har bir kishi borishda ikki va qaytishda ikki hikoya aytsin, deb taklif kiritadi. Bu fikr hammaga ma'qul tushadi. Ziyoratchilar (29 kishi) tomonidan aytilgan va yozib ulgurilgan hikoyalar asarning mazmunini tashkil etadi. Ziyoratchilar turli yosh va turli tabaqa vakillari (ritsar, savdogar, monax, kosib, talaba, dehqon va boshqalar) bo'lganliklari uchun ularning hikoyalari ham turmushning turli tomonlarini qamrab oladi. Bir kishining hikoyasi tugagach, ikkinchisi uni davom ettiradi. Asar bu jihatdan Bokkachchoning «Dekameron»ini eslatsa ham, lekin unda voqealar ancha keng tasvirlangan. «Dekameron»da 7 qiz va 3 yigitning Bog'i Eramdagi hayoti gavdalansa, «Kenterberi hikoyalari»da turli toifa va turli yoshdagi kishilarning keng doira (katta ko'cha)dagi harakat va turmushlari aks ettiriladi.

Ritsar va uning yarog'bardor o'g'li romantik pafos bilan jang voqealarini hikoya qiladi. Tegirmonchi fabliolardan so'zlaydi. Ayollar monastirining kapellani (ashula xorining boshlig'i) tovuqxonadagi xo'roz haqida hikoya qiladi.

Asarda kulgili voqealar bilan birga dahshatli epizodlardan iborat hikoyalar ham bor. Indulgenstiya (cherkov yorlig'i) bilan savdo qiluvchi ziyoratchi ochko'zlik va xasislik haqida hikoya aytib beradi. Bu hikoyada aytilishicha, uch do'st oltin topib oladilar. Ulardan biri ovqat keltirgani ketadi, qolgan ikkisi uni o'ldirib, boylikni baravar taqsimlab olmoqchi bo'ladi. Birinchisi esa o'ljani yakka o'zi egallash maqsadida keltirgan ovqatiga zahar soladi. Natijada har uchulasi ham halok bo'ladi.

Xullas, Uyg'onish davri adabiyotining buyuk namoyandalari tush motiviga murojaat kilib, hatto undan janr shaklida foydalanib, badiiy ijod vositasiga aylantirganlar.

II. 2. Asar qahramonlarining ruhiyatini va tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini ochib berishda tushning roli

Tush ruhiy tahlil vositalari ichida eng qulayidir. Badiiy asarlarda tush motividan foydalanib, asar qahramonlarining ruhiyatini ochib berish, ularning ahvolini, kayfiyatini, ichki kechinmalarini, dunyoqarashini tasvirlash yozuvchilarning badiiy ijoddagi mahoratini belgilab ko'rsatuvchi o'ziga xos qirralardan biridir.

Tush motividan har bir ijodkor o'ziga xos usulda foydalanadi. Kimdir undan ruhiy tahlilni yaratuvchi uslubiy vosita sifatida foydalansa, yana kimdir kompozition shakl sifatida foydalanganligi kuzatiladi. Qolaversa, **tushning kayfiyatga ta'siri ko'rsatishi ma'lum**. Shuni inobatga olib, ayrim adiblar o'z asarlarida tushning qahramon kayfiyatiga ta'sirini tasvirleydilar.

Ma'lumki, kishi ko'pincha bezovtalanib uxlasa, bezovta tushlar ko'radi. Ruhan va jisman yaqin bo'lgan insonlarning oradan qancha vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay bir-birining tushiga kirib turishi ham ma'lum.

Vilyam Shekspir (1564-1616) – ingliz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili. Oddiy kosib oilasida tug'ilgan Shekspir 1587 yilda Londonga keladi. Teatrda avval suflyor, so'ngra aktyor, keyinroq rejissyor bo'lib ishlaydi, teatrni boshqarishda direktorga hamkorlik qiladi.

Shekspir hammasi bo'lib 2 poema, 154 sonet va 37 pesa yaratgan. Ijodining birinchi davrida Shekspir «Adashishlar komediyasi», «Qaysar qizning quyilishi», «Veronalik ikki yigit», «Sevgining behuda kuchayishi», «Yo'q narsadan bir talay g'ovga», «O'n ikki kecha» kabi komediyalar, «Genrix VI», «Richard III», «Yuliy Sezar», «Romeo va Jyuletta» tragediyalarini yaratadi. Ijodining ikkinchi davrida «Hamlet», «Otello», «Qirol Lir», «Makbet», «Antoniy va Kleopatra», «Kariolan» tragediyalarini yozadi. Ijodining uchinchi davrida tragikomediyalar – «Simbelin», «Qishki ertak», «Bo'ron» asarlari yoziladi.

G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda, Uyg'un, Turob To'la, Jamol Kamol va boshqa adiblar Shekspir asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilganlar.

Muhabbat shoh-u gadoga bir deyishadi. Shekspir yaratgan obrazlar, turli toifa kishilari hammasi ishq deydi, muhabbat deydi. Shekspir eng qiyin adabiy janrda qalam tebratdi. Jahon adabiyotida hech bir adib Shekspir darajasiga ko'tarila olmagan. Shekspirning deyarli barcha asarlari sheriy yo'l bilan yozilgan. Ko'pincha aktyorlar asarni repititsiya qilish jarayonida sherni yodlash qiyinligidan shikoyat qilishgan. Shekspir sheriyati esa ravon va ifodaviy. Uni esda saqlab qolish juda oson.

Shekspir ijodining muhim tomoni: uning asarlari – dialog va monologlari qatida falsafa, mano yashiringan. Shekspir – drama, tragediya, komediya, sonet ustasi. Shu bilan birga u tarixning bilag'oni, faylasuf va shoirdir. Shekspir fikrlarni yoqimli, tushunarli tarzda bera olgan. Har bir tragediyasida shunday satrlar borki, ularni alohida sher qilib elon qilsa ham bo'ladi. Shekspir o'zidan keyin o'lmas meros qoldirib ketdi. Bu merosdan hozirgi kunda millionlar bahra olmoqda.

“Yoz kechasidagi tush” Shekspirning she'riy dramalaridan biri bo'lib, unda Afina shahrining hokimi Kaseus, Afina fuqarosi Egeus, yosh afinaliklar Demetrius va Lisandr, Egeusning qizi Hermiya va uning dugonasi Helena, qishloqi yigit, parilar poshosi Oberon, parilar malikasi Titaniya, Oberonning maslahatchisi Pak hamda parilar obrazlari ishtirok etgan.

Asarda hikoya qilinishicha, qadim Yunonistonning Afina shahrida shundoq bir qonun joriy etilgan ediki, unga ko'ra ota-onalar o'z qizlarini majburlab erga berisha olardi. Qiz ko'nmasa, qaysarlik qilsa, uni o'limga hukm etishlari ham mumkin edi. Ammo haligacha biror ota-ona o'z qizini o'limga hukm etmagandi.

O'sha davrda Afinada Egeus degan bir kishi yashardi. U yolg'iz qizi Hermiyani boy, badavlat xonadon farzandi bo'lmish Demetrusga uzatmoqchi bo'ladi. Biroq Hermiya bu nikohga rozi bo'lmaydi. U Lisandr degan yigitga ko'ngli borligini aytadi. Shunda g'azablangan otasi Afina hokimi Koseus oldiga borib, undan qizini qatl etishlarini so'raydi.

Hermiyaning bu nikohga yo'q deyishiga yana bir sabab bor edi. Bir gal Demetrius Hermiyaga dugonasi Helenani yoqtirishini aytgan, Helena ham

Demetreusni astoydil sevib qolgan edi. Qiz shu haqda otasiga aytsa-da, toshbag`ir otasi bu gaplarni eshitgisi ham kelmaydi.

Afina hukmdori oqil va muruvvatli bo`lsa-da, amaldagi qonunni chetlab o`tolmasdi. U Hermiyani huzuriga chorlab, o`ylab ko`rishi uchun to`rt kun muhlat beradi. Shu to`rt kun ichida u otasining amriga bo`ysunmasa, albatta qatl etilajagini ochiq-oydin aytadi.

Hermiya hokim huzuridan chiqib, sevgan yigiti Lisandr oldiga boradi va unga bo`lgan voqealarni aytib beradi. Shum xabarni eshitgan Lisandr ham qayg`uga botadi.

Hermiya va Lisandr o`zaro kelishib, Lisandrning xolasi yashaydigan joyga qochib ketishni rejalashtiradilar. Chunki u erda bunday qonun amal qilmas edi.

Lisandr qizni shahar tashqarisidagi o`rmonzorda kutishini aytadi. Har yili may oyida Lisandr, Hermiya va Helena uchulasi sayr qiladigan bu o`rmonzor ularga juda qadrli edi. Hermiya Lisandrning taklifini bajonidil qabul qiladi. Lekin u bu sirni boshqalardan yashirsa-da, yaqin dugonasi Helenadan yashira olmaydi va unga aytib qo`yadi. Helena esa nodonlik qilib, bor gapni oqizmay-tomizmay Demetrusga etkazadi. U sevgan yigiti bevafoqlik qilib Hermiyaning ortidan yugurishini taxmin qilar, agar shunday qiladigan bo`lsa, o`zi uning iziga tushmoqchi bo`ladi.

Lisandr va Hermiya uchrashmoqchi bo`lgan o`rmon mitti parilar maskani edi. Parilar qiroli Oberon va parilar malikasi Titaniya o`z yaqinlari bilan shu erda yarim tunda raqsga tushishardi. Shu kunlarda qirol va malika orasidan ola mushuk o`tib, arazlashib qolishgandi. Janjalning boisi bir bola edi. Bolaning onasi Titaniyaning dugonasi edi. Onasi vafot etib, bola enaga qo`lida qolgach, Titaniya uni o`g`irlab, o`rmonga olib kelgan edi.

Parilar poshosi Oberon bolani o`z xizmatkori qilish talabini qo`yadi. Titaniya bunga aslo rozi bo`lmaydi. Jahli chiqqan Oberon Titaniyaga: “Bor-boraver, tongotarda ta`ziringni berib qo`yaman”, – deydi. U huzuriga dono maslahatchisi Pakni chorlaydi. Pak turli nayranglarni bajarishda ustasi farang edi. Oberon unga: “Qizlar “Bekorchilikdagi muhabbat” deb ataydigan jajji gulni menga

topib kel” deb buyuradi. “Bu gulning shirasini uxlab yotgan kishining qovog`iga tomizsa, u ko`z ochib, birinchi ko`rgan narsasiga oshig`u shaydo bo`ladi-qo`yadi. Men uni Titaniyaning qovog`iga tomizaman. U uyg`onib, birinchi ko`rgan narsasi arslonmi, ayiqmi yoki maymunmi, o`shani sevib qoladi. To haligi bolani menga bermaguncha, uni sehr-u jodudan ayirmayman”, – deydi Oberon.

Pak gulni izlab ketadi. Oberon uni intqlik bilan kuta boshlaydi. Shu payt o`rmonga Demetrius bilan Helena kirib keladi. Demetrius Helenani nega izimdan ergashasan deb koyiydi. Helena esa unga sevgidagi iqrorlarini eslatadi. Demetrius qizdan qutulish uchun o`zini o`rmon ichiga uradi. Helena jon holatda uning izidan yuguradi.

Parilar podshosi Oberon sevgisiga vafodorlarni hamisha hurmat qilardi. Shuning uchun uning Helenaga rahmi keladi va jajji gulni keltirgan Pakka “Sen manavi gul bargini ol. Bu erda bir qiz afinalik toshbag`ir yigitning ortidan sarson bo`lib yuribdi. Sen payt poylab, o`sha yigit uxlaganda gul shirasini uning ko`zlariga tomiz. Shunday qilki, qiz uning yonida bo`lsin. Uyqudan uyg`onganda birinchi bo`lib ko`zi qizga tushsin. Afinalikni kiyimidan tanib olasan...”, – deb buyrstuq qiladi.

Pak: “Xo`p bo`ladi, ishni aytganingizday ado etaman” deb, yo`lga tushadi. Oberon esa Titaniya dam oladigan xilvatgohga keladi. Titaniya ilon po`stini choyshab qilib, o`ranib olardi. Uxlashga yotishdan oldin malika joriyalariga: “Bir nechalarangiz qurtlarni qiring, gulg`unchalarni eb qo`yishmasin. Bir nechalarangiz ko`rshapalaklarni qiring. Ularning qanotlaridan chiroyli kamzullar tikamiz. Bir nechalarangiz huv-huvlagan boyqushga hazir bo`lib turing. Menga yaqinlashmasin. Lekin hammadan avval alla aytib, meni uxlatiing” deya buyruq beradi. Parilar malika Titaniyaga alla aytishadi:

Sehru jodu, fitna ziyon etmagay,

Rohat qilib uxla shu palla.

Shirin tushlar ko`rgil, alla-yo alla.

Shirin allani tinglab, malika uxlab qoladi. Parilar buyurilgan ishlarni bajarishga kirishadilar. Oberon Titaniyaga ohista yaqinlashib, gul shirasini uning

ko'zlariga tomizadi. U shirani tomizar ekan: "Ko'z ochib ko'rsang kimni, jondan sevib qol uni" deydi.

Hermiya o'sha kecha otasining uyini yashirincha tark etib, o'rmonga keladi. Lisandr uni intizor bo'lib kutib turardi. Ular yo'lga tushadilar. O'rmonning naq yarmiga etganda Hermiya charchab, horib qoladi. Lisandr uni o't-o'lan ustida yotib, dam olishga undaydi. O'zi ham bir chekkada cho'zilib, uyquga toladi. Shu payt ularning yoniga Pak kelib qoladi. U Lisandrni Oberon aytib bergan afinalik kiyimidagi Demetrius gumon qilib, gul shirasini uning ko'ziga tomizadi. Lisandr uyg'ongach, birinchi bo'lib ko'zi shu erga kelib qolgan Helenaga tushadi va yigit bir zumda uni qattiq sevib qoladi. Lisandr sehrli gul shirasi ta'sirida Helenaga har xil oshiqona gaplarni ayta boshlaydi. Uning gap-so'zlari-yu o'zini tutishi Helenaning jahlini chiqaradi. Helena o'zini kalaka qilinayotganday his etadi. U ketar ekan, Lisandr ham yaqinida uxlab yotgan Hermiyani batamom unutib, Helenaga ergashadi.

Hermiya uyg'onganda, o'zini o'rmonda yolg'iz ko'rib, rosa qo'rqib ketadi. Lisandrni tashvishga tushadi. Buning ustiga uni qanday izlab topishni ham bilmaydi. Bu orada Lisandr va Hermiyani izlayverib holdan toygan Demetrius ham yotib, uyquga ketadi. Oberon kelib uning ko'ziga gul shirasidan tomizadi. Demetrius uyg'onganda, ilk bor ko'zi Helenaga tushadi va unga sevgi izhor qila boshlaydi. Shu payt izma-iz Hermiya bilan Lisandr ham paydo bo'lishadi. Hermiyaning ko'zi o'ngida Demetrius va Lisandr sehr-jodu ta'sirida galma-galdan Helenaga oshiqona so'zlar aytishadi. Helena bo'lsa, bu uchalasi meni kalaka qilishga kelishib olishgan, deb o'ylaydi. Hermiya ham bu holga hayron qoladi. Ikkala qalin dugona, maktabdosh do'st bir-biriga g'azab ko'zi bilan boqa boshlaydilar, o'zaro ta'na-dashnomga o'tadilar. Bir yoqda yigitlar janjal boshlab qolishadi.

Tunlar qirol, parilar hukmdori Oberon Pakning adashganini sezib, uni koyiydi va xatosini to'g'rilashi lozimligini buyuradi. Oberon o'zi Titaniyadan xabar olishga ketadi.

Titaniya uygʻonib, bir qishloqi yigitni koʻrib qoladi va gul shirasi taʼsirida uni sevib qoladi. Oberon xotinini masxara qilish maqsadida yigitning boshiga eshak kallasini oʻrnatadi. Titaniyaning buyrugʻi bilan parilar eshakbosh yigitga xizmat koʻrsata boshlaydilar. Malika esa unga sevgi izhorini qilishda davom etadi. Nihoyat, eshakbosh yigit uxlab qoladi. Bularni kuzatib turgan Oberon kelib, malikani eshakka oshiq boʻlgani bilan qutlab, kinoya va kesatiq soʻzlar aytib boshlaydi. Xijolatda qolgan malika eriga asrandi bolani berishga rozi boʻladi. Oberon malikani gul sehridan qutqaradi. Qishloqi bolaning boshidagi eshak kallasini ham olib tashlaydi. Yana Oberon va Titaniya ahil yashay boshlaydilar. Shunda Oberon oʻrmonda boʻlgan haligi voqealarni xotiniga aytib beradi. Ular birgalikda Lisandr va Hermiyani bir-biridan uzoq boʻlmagan joyda uxlab yotgan holda topib, Lisandrning koʻziga boshqa gul shirasidan tomizadilar. Lisandrning avvalgi aql-u hushi qaytadi. U Hermiyaga oʻz sevgisini izhor etadi. Ular tunda kechgan voqealarni hayrat bilan esga olishadi. Oʻsha voqealar chindan ham yuz berdimi yoki ular **bosiriq tushmidi**, degan xayollar girdobida qolishadi.

Bu orada Demetrius bilan Helena ham uyqudan uygʻonadi. Demetrius Helenaga sevgi izhor qiladi. Shu bilan dugonalar oʻrtasidagi araz ham tarqaydi. Qizlar tagʻin sirdosh, munis dugonalarga aylanishadi. Aytilgan barcha achchiq-quruq gaplar unutiladi.

Demetrius Hermiyaga uylanmaslikka qaror qilgach, bechora qiz ustidan oʻlim hukmi olib tashlanadi. Egeis ham endi qizining Lisandrga turmushga chiqishiga qarshilik koʻrsatmaydi. Lisandr bilan Hermiyaning toʻyi oʻlim hukmi ijro etilishi moʻljallangan toʻrtinchi kunga tayinlanadi.

Parilar qiroli va malikasi ham oshiq-maʼshuqlarning murod-maqсадga etganini koʻrib, behad xursand boʻladilar va bu shodiyonani goʻzal raqslar bilan kutib oladilar.

Shunday qilib, yoz tunidagi muhabbat mojarosi uyquda kechgan **ajabtovur tushdek** bir kechada oʻtadi-ketadi.

Shekspirning “Romeo va Julyetta” asarida ham **Romeoning tushi** keltirilgan. **Romeo bir ajoyib tush koʻrgan**, shuning taʼsirida xursand va baxtiyor edi.

Tushida Romeo o'lgan emish. Sevgilisi kelib, uning lablaridan o'pib, qayta jon bag`ishlaganmish... u tirilib, podsho bo'lganmish!..

Ko'rgan tushini yaxshilikka yo'yib, qismatdan xayrli mujdalar kutayotgan Romeoga Julyettaning o'limi haqidagi xabar xuddi boshiga chaqmoq urgandek ta'sir qiladi. (28).

“Yuliy Stezar” dramasida Stezarning xotini **Kalpurniyaning tushi** keltirilgan.

Asarda Stezarning do'sti va qotili Brut Lyustiyga shunday deydi:

Hoy Lyustiy, tur! Nega buncha qotib qolding? Ha, mayli,
Soz uyquning vazmin, bolday shabnamiga qonib ol.

Bosinqirash, yomon tushlar hali hozir miyanga,
Tashvish solmas, shul sababdan uyqung juda og`irdir.

Ikkinchi sahnada Stezar saroyining zali namoyon bo'ladi. Havo gumburlaydi. Tungi libosda Stezar kiradi va deydi:

Bugun tuni er ham, ko'k ham uxlamadi mutlaqo,
“Dod, Stezarni o'ldirishayotibdi, dod qutqaring”.

Deb qichqirdi uch martaba Kalpurniya tushida.

Hoy, odamlar! Kim bor? Kim bor? (249).

Sezar baqirig`ini eshitib, xizmatchi kiradi va “Nima deysiz, sohibim?” – deydi. Stezar:

Rohiblarga xabar qilgil – tez qurbonlik so'ysinlar.
So'ngra, ular nimalar yuz berishini oldindan
Ta'bir etsa, hammasini kelib menga aytasan.

Xizmatchi kelib, rohiblarning “Sezar uydan chiqmasin deyishganini, qurbonlikka so'yilgan molning yuragini topisha olishmaganini” aytadi.

Bu orada Kalpurniya ham kelib vahimali ta'bir va belgilardan gap ochadi va uning uyda qolishini, ko'chaga chiqmasligini, kasalman deb aytishini so'raydi.

Shu vaqt Sezarning do'sti Destiy kelib, uni senatga borishga undaydi. Lekin Stezar Destiyga do'sti bo'lgani uchun to'g`risini aytib qo'ya qoladi:

Ammo, shaxsan senga, do'stim bo'lganliging tufayli.

Aytib berishligim mumkin: meni yubormayotgan
Kalpurniya. U kechasi **yomon tushlar** ko'ribdi.
Tushidamish, go'yo mening haykalimdan, yuz ko'zli
Fontan kabi qon oqqanmish va juda ko'p rimlilar
Qah-qah urib, qo'llarini yuvgan emish shu qonda.
Bu **qo'rqinchli tush** shumlikdan darak berur, bugun sen
Uydan chiqma deb yolvordi Kalpurniya tiz cho'kib.

Destiy tushni boshqacha ta'bir qiladi:

Tush noto'g'ri izohlanmish. Bu tush baxtdan nishona;
Go'yoki qon oqizuvchi va qonida rimlilar
Shodu xurram cho'milishgan, sening ezgu haykaling,
Rimni jonbaxsh qoning bilan sug'orishing haqida,
Va yoningga odamlarning obro' istab, shon izlab
Kelishidan darak berur. **Kalpurniya tushini**
Mana shunday anglash kerak.

“Qolaversa, – deydi Destiy, – bugun senat senga toj kiygizishga qaror qilgan. Ammo bormasligingni eshitishsa, fikrlaridan qaytishlari mumkin. Agar ular: “Xo'p, majlisni to Stezarning xotini **yaxshiroq tush ko'rgunicha** to'xtataylik” deyishsa, odamlarga kulgi bo'lib qolasan”

Brutning tushiga Stezar arvohi kiradi. Brut shundan so'ng o'zini-o'zi o'ldiradi.

Shekspirning “Qiyiq qizning quyilishi” asarida Slayni “lordsan” deb, mastligidan foydalanib laqillatishadi. O'n besh yil uxladigiz deyishadi. U bechora esa:

“Men lordman? Tengri yo'q xotinim ham bor?

Tushimmi? O'ngimmi? Uyqudamidim?

Yo'q-e, ko'rayapman, eshitayapman” deb hayron bo'ladi.

Uyg'onish davri Fransuz adabiyotida roman ustasi sifatida shuhrat qozongan adib Aleksandr Dyumaning «Graf Monte-Kristo» romanida ham tush motiviga ishora bor. Unda Mercedes tomonidan Edmon Dantesga shunday deyiladi: “...O'n

yil uzluksiz bir xil tush ko'rdim. Sizni qochmoqchi bo'libdi, degan mish-mish tarqalibdi, mahbuslardan birining joyiga yotib, kafanga o'ralib olibdi va o'sha tirik murdani, ya'ni sizni If qal'asining cho'qqisidan dengizga uloqtirishibdi, toshga tushib qichqirib yuborganingizni eshitgandan so'nggina go'rkovlaringiz – t qotillaringiz boshqa mahbusga almashganingizni bilishibdi... Edmon, o'g'limning hayoti haqqi, qasamyod qilib aytamanki, o'n yil mobaynida tepalikdan noma'lum va dahshatli bir narsani uloqtirib tashlayotgan odamlar tunlari orom bermay bezovta qildi meni, o'n yil tunlari vahimali qichqiriq qulog'im tagida jaranglab, yuragimga dahshat solib keldi".⁶

Xullas, uyg'onish davri ijodkorlari asarlarida tush motivi alohida o'rin tutadi. Uning asarlarida tush yo qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish vositasi, yo asarda tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini yorituvchi kompozistion usul sifatida namoyon bo'ladi.

⁶ Дюма А. Граф Монте-Кристо. Роман. Русчадан Т.Рустамов таржимаси. Иккинчи китоб. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – Б.394.

XULOSA

Tush motividan badiiy asarlar syujetida foydalanish qadimiy an'analarandir. Bu bejiz emas, albatta. Chunki tush ijodkorga ifodadayotgan fikrini teran, ixcham, ta'sirchan, rangdor qilib tasvirlashga yordam beradi. Shu jihatdan qaraganda, tush badiiy asarlarda poetik vosita sifatida, jumladan, kompozistion vosita sifatida ko'zga tashlanib, alohida san'at darajasidagi hodisa tarzida diqqatni tortadi.

Har bir tush o'z mazmuniga va ramzlariga ega bo'ladi. Undagi ana shu ramzlarni ochish ta'bir hisoblanadi. Tushlarni ta'birlashda har bir millatning urf-odati, irim-sirimlari, diniy qarashlari hisobga olinadi.

Badiiy asarlarda tush badiiy vosita sifatida qo'llanib, hayot haqiqatini ta'sirchan ochishga xizmat qilib keladi.

Tushlar badiiy ijodda qoliplash san'atining qulay vositasidir. Shu jihatiga ko'ra badiiy asarlarda tushdan badiiy-kompozistion vosita sifatida keng foydalanilganligi kuzatiladi.

Badiiy asarlarda tushlarning badiiy hamda hayotiy asoslari ochib beriladi. Ularning kompozistion vosita sifatidagi roli namoyon bo'ladi. Tush ko'rinishlari badiiy asarlar syujetida alohida o'rin tutadi. Tushlar poetik vosita sifatida hayotiy haqiqatni badiiy ochishga yordam beradi. Tushni badiiy vositaga aylantirishda undagi ramziy belgilarning o'rni kattadir.

Badiiy asarlarda tushning inson hayotidagi o'rni, insonning tush haqidagi tasavvur-tushunchalari badiiy aks ettiriladi.

Badiiy asar qurilmasida tushlar tugun yo echim bo'lib keladi, yoxud voqealar rivojini ta'minlashga xizmat qiladi, ayniqsa, asar qahramonining ruhiyatini ochishda muhim vosita bo'lib keladi. Shunisi bilan tushlar tinglovchida emostiya uyg'otishi, voqealarni bir-biriga bog'lashgagina xizmat qilmay, qahramonning ruhiy holatini ochib berishga yo'naltirilganligi bilan estetik vazifa bajaradi.

Badiiy asarlarda tush epizodlari pala-partish, shunchaki kiritilavermaydi, balki ular ma'lum badiiy tamoyil asosida, ma'lum poetik qonuniyatlarga bo'ysundirilgan holda, muayyan maqsad bilan asar syujetidan o'rin oldiriladi. Agarda shunday bo'lmaganda edi, badiiy asarlarda uchraydigan tush epizodlari poetik vositaga aylanolmas va bekorchi bir narsa bo'lib qolar edi.

Tush epizodlari kompozistion vosita sifatida yo badiiy asar syujetining boshlanishida kelib, asosiy tugun vazifasini bajaradi yoxud asar voqealarini o'zaro uyushtirishga va yaxlitlashtirishga xizmat qiladi. Asar ichidagi yondosh syujet liniyasi – kiritma voqealar, yangi sarguzashtlarning boshlanish nuqtasi bo'lib keladi, ikkilamchi tugun hosil qiladi. Voqealarning mantiqiy bog'lanishini ta'minlaydi hamda ularning avj nuqtaga – kulminastiyaga ko'tarilishida katalizator vazifasini o'taydi, asar echimini tezlashtiradi.

Tushlar badiiy asarlarda g'oyaviy mazmunni teran, ixcham, ta'sirli, rangdor qilib etkazishning an'anaviy poetik ifoda vositalaridan biridir. Ular bu jihatdan badiiy asarlarda turli badiiy-estetik vazifa bajarib keladi. Badiiy asarlar kompozistiyasida tushlar yo shaklni belgilaydi, yo mazmunni badiiy yorqin ifodalashga ko'maklashadi.

Tushlar badiiy asarning zamonaviy g'oyaviy mazmunini yoritishda, badiiy ta'sirchanligini va xalqchilligini oshirishda muhim poetik vosita sifatida xizmat ko'rsatadi.

Tush motivi asar voqealarining rivojlanib borishini ta'minlaydi, ammo bunda qahramon tushida ko'rgan voqealar birdaniga emas, asta-asta real haqiqatga aylanib boradi.

Badiiy asarlarda tush va ramz munosabati alohida e'tiborni tortadigan muhim masalalardan biridir. Tush ta'birlarida ramziylik kuchli bo'ladi.

Tushlar asarning bosh g'oyasiga hamohang bo'lganligidan badiiylikning qolgan unsurlarini o'z atrofida birlashtirib keladi.

Tushlarda makon va zamon qat'iyatligi bo'lmaydi. Ularda o'tgan zamon va hozirgi zamon voqeligi va odamlari aralashib ketaveradi.

Xullas, badiiy asarda uchraydigan tush epizodlari poetik vosita sifatida o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Ular, avvalo, badiiy asarlar syujetida xalq ta'birlariga mos tarzda keltirilishi kuzatiladi. Shuningdek, badiiy asarda keltirilgan har qanday tush, albatta, reallikka aylanadi.

Uyg'onish davri ijodkorlari Vilyam Shekspir, Luis de Kamoens, Vilyam Leglend, Choser asarlarida tush motivi alohida o'rin tutadi. Hatto ularda tush janr sifatida uchraydi. Yana tush yo qahramonlarning ruhiy holatini ochib berish vositasi, yo asarda tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini yorituvchi kompozition usul sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihatdan Vilyam Shekspir asarlari e'tiborni tortsa, Choserning «Gersoginya haqida kitob» (1369), «Shuhrat uyi» (1379-1384), «Qushlar kengashi» (1377-1382) poemalari «videnie» (tush) janrida yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Normativ – huquqiy hujjatlar, siyosiy adabiyotlar:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 174 б.
2. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 40 б.

II. Darslik, o'quv qo'llanmalar, monografiya va risolalar:

3. Абдурахмонова М. Руҳий дунё тасвири. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1977. – 32 б.
4. Абдусаматов Ҳ. Эстетика ва ҳаёт. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1976. – 266 б.
5. Азизов Қ., Қажумов О. Чет эл адабиёти тарихи. (XVIII-XX асрлар). – Т.: «Ўқитувчи» 1987. – 334 б.
6. Жўраев Т. Онг оқими. Модерн. – “Фарғона” нашриёти, 2009. – 203 б.
7. Имомова Г. Руҳий изтироблар. – Т.: Ёзувчи, 1992. – 22 б.
8. Исимуҳаммад Б. Туш кўриш хосиятлари. – Т.: Истиқлол, 2003. – 64 б.
9. Истамова Ш. Тушга хос рамзий ифодавийлик ва унинг бадиий асарлардаги эстетик-композицион вазифалари. // Филология ва усулиёт масалалари. Илмий-усулий мақолалар тўплами. 2-китоб. – Бухоро, 2010. – Б. 69-73.
10. Истамова Ш. Тушга оид эътиқодий қарашларнинг бадиий асарлардаги талқини. // Ўзбек фольклори контекстида Бухоро фольклорини регионал тўплаш ва ўрганиш муаммолари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. – Бухоро, 2010. – Б. 109-110.
11. Сайдалиев А., Алимухаммедова Р. Туш кўриш ҳақида. – Т.: Ўзбекистон, 1977. – 20 б.
12. Саидов У. Европа маърифатчилиги ва миллий уйғониш. – Т.: “Академия”, 2004.
13. Саломов Ғ., Комилов Н. Дўстлик кўприклари. – Тошкент: Ғ. Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 222.

14. Саломатлик Энциклопедияси. – Т.: ЎСЭ. – 1985. – 428 б.
15. Самад А. Ўзимизнинг туш таъбири. – Т.: Мумтоз сўз, 2009. – 64 б.
16. Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. – Т.: «Ўзбекистон», 1997. – Б. 416.
17. Сулаймонова Ф. Шекспир Ўзбекистонда. – Т., Фан, 1978. – 152 б.
18. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Т.: Фан, 1983. – Б.148.
19. Умуров Ҳ. Ўзбек романчилигида бадиий психологизм. – Т.: Ўқитувчи, 1982. – 46 б.
20. O'rayeva D., Quvvatova D. Jahon adayioti terminlarning izohli lug'ati. – Т.: Turon zamin ziyo, 2015. – В.136.
21. Қаямов О. Чет эл адабиёти тарихи. (Илк ўрта асрлар, Уйғониш даври ва XVII аср Ғарбий Европа адабиёти). – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 320 б.
22. Хотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – 376 б.

III. Ilmiy jurnal va gazetalar dagi maqolalar

23. Абдурахмонова М. Рус адабиёти ва ўзбек прозасида психологик таҳлил. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1976. – № 2. – Б.40-44.
24. Алиева Н. “Ўткан кунлар”да психоаналитик ҳолатлар. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2011. – № 1. – Б.85-89.
25. Дўстхўжаева Н. Эртақларда туш ҳодисаси// Тафаккур. – Т., 1998. – № 4. – Б.85.
26. Истамова Ш. Романда туш тасвири. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1997. – № 6. – Б. 16-19.
27. Истамова Ш. Бадиий асарда туш талқини. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2010. – № 4. – Б. 66-68.
28. Каримова Н. Композицион мукамаллик йўлида. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1991. – № 6. – Б.55-58.
29. Отабой А. Сюрреализм. – Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1996. – 19 апрель.

- 30.Отабой А. Онг оқими. – Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – 1997. – 24 январь.
- 31.Саид Аҳмад. Қўрқинчли тушлар. – “Халқ сўзи” газетаси. – 1996. – 25 сентябрь. – 4-саҳифа.
- 32.Тўхлиев Б. Туш мотивидаги бир деталь талқинига доир. – Адабий мерос. – 1991. – № 4. – Б.55-58.
- 33.Фромм Э. Унутилган тил. – “Миллий тикланиш” газетаси. – 1996. – 20 февраль.
- 34.Шодиев Н. Психологик таҳлил принциплари, форма ва воситалари. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1973.- №2. –Б. 3-8.
- 35.Эшонқул Ж. Туш ва талқин. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 1998. – № 2. – Б. 40-42.
- 36.Эшонқул Ж. Туш ва унинг ўрганилиши. – Ўзбек тили ва адабиёти. – 2001. – № 2. – Б. 54–60.

IY. Badiiy adabiyotlar

- 37.Вильям Шекспир. Танланган асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. Ромео ва Жульетта. Отелло. Ўн иккинчи кеча ёки турфа ҳангомалар. Тўпловчи Жамол камол. Сўз боши муаллифи Воҳид Зоҳидов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 488 б.
- 38.Вильям Шекспир. Танланган асарлар. Беш жилдлик. Иккинчи жилд. Қирол Лир. Юлий Сезарь. Қийиқ қизнинг қуйилиши. Тўпловчи Жамол камол. Сўз боши муаллифи Воҳид Зоҳидов. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. – 488 б.
- 39.Дюма А. Граф Монте-Кристо. Роман. Русчадан Т.Рустамов таржимаси. Иккинчи китоб. – Т.: Янги аср авлоди, 2015. – 696 б.
- 40.Султонов Х. Бобурнинг тушлари // Саодат соҳили. - Т.: Адабиёт ва санъат, 2005. – Б.153 -164.
- 41.Sheksprdan hikoyatlar. J. Kamol tarjiması. – Toshkent: Cho`lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. – 60 b.

V.Dissertastiya va avtoreferatlar

- 42.Сафарова Ҳ.А. Рабғузийнинг “Қиссаи Юсуф Сиддик алайҳис-салом” асари манбалари ва ғоявий-бадий таҳлили. НДА. – Самарқанд, 2001, 28-б.
- 43.Шодиев Н. А.Қахҳорнинг психологик таҳлил маҳорати. НДА. – Т., 1973. – 28 б.
- 44.Эшонқулов Ж.С. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. ДДА. – Т., 2010. – 47 б.

VI.Internet saytlari

- 45.kh-davron.uz.
- 46.www.ziyouz.com
- 47.www.google.uz
- 48.www. literatura.uz
- 49.www.ziyouz.com.kutubxonasi
- 50.www.wikipedia.com.

MUNDARIJA:

Rasmiy ish qog`ozlari.....

Kirish.....

I bob. Badiiy ijodda tush motividan foydalanish – o`ziga xos san`at sifatida.....

I. 1. Tushga ishonchning badiiy asarlardagi talqini.....

I . 2. Badiiy asar qurilishida tush motivining o`rni.....

II bob. Uyg`onish davri adiblari asarlarida tush motivining badiiy-estetik vazifalari.....

II. 1. Jahon adabiyotida tush motividan foydalanishning an`anaviyligi.....

II. 2. Uyg`onish davri adabiyotida tush motividan foydalanish tajribasi.....

II. 3. Asar qahramonlarining ruhiyatini va tasvirlanayotgan voqealar mohiyatini ochib berishda tushning roli.....

Xulosa.....

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....

10886